

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI AL-
XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:

**SULTONOVA UMIDA AHMEDJONOVNA
“PSIXOLINGVISTIKADA ADABIY ME‘YOR VA UNING
MAZMUN MOHIYATI”**

5A 120102 – Lingvistika (O‘zbek tili) yo‘nalishi

**Magistr akademik darajasini
olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi,

dotsent S.S.Ro‘zimboyev

Mundarija.

Kirish. Psixolingvistika haqida umumiy ma'lumot.....	3-9
I bob. Grammatika va psixologiya.....	10-24
1. Lingvistik idrok.....	12-13
2. Til o'zlashtirish nazariyalari.....	14-18
3. Transformatsion grammatika.....	19-23
I bob bo'yicha xulosa.....	24
II bob. Psixolingvistikada ma'no va mazmun muammolari.....	25-42
1. Psixolingvistikada so'z ma'nosi.....	26-32
2. So'z assotsiatsiyalari (to'dalari).....	33-36
3. Semantik generalizatsiya (umumlashtirish).....	37-38
4. Psixolingvistikada gap tushunchasi.....	38-41
II bob bo'yicha xulosa.....	42
III bob. Psixolingvistikada til, nutq va tafakkur munosabati.....	43-72
1. Psixolingvistikada til va xotira.....	48-51
2. Tafakkur va uning shakllari.....	52-58
3. Verbal va noverbal tafakkur.....	58-71
III bob bo'yicha xulosa.....	72
Xulosa.....	73
Adabiyotlar ro'yxati	74-75

KIRISH

Psixolingvistika haqida umumiy ma'lumot.

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Psixolingvistika atamasi amerika olimlari tomonidan ilmiy hayotga olib kirildi. Ilk marta bu atama 1946-yilda amerika psixologi N.Pronko tomonidan "Til va psixolingvistika" nomli maqolasida qo'llanildi. Lekin bu maqolada, psixolingvistikaning maqomi keng ilmiy jamoatchilik e'tirof etadigan darajada belgilanmagan edi.

Psixolingvistika 1. (angl. psycholinguistics) tilshunoslikning nutq jarayonini nutq akti va so'zlovchi (yozuvchi), axborotni yuzaga keltiruvchi shaxs maqsadi va mazmuni orasidagi munosabat nuqtai nazaridan o'rganuvchi sohasidir.

2. Tilshunoslikda so'zlovchining ijtimoiy ongi, ijtimoiy hayoti va tilning mazmun tomoni orasidagi aloqalarini o'rganuvchi sohasidir. Psixolingvistika psixologiya va lingvistikani o'zida namoyon qilish barobarida, nutqni idrok qilish, tilni egallash qonuniyatlari (bolalarda nutqning rivojlanishi, ikki tillilik), lingvistik jarayonlarning bilishga munosabati kabi muammolar bilan shug'ullanadi. Metalingvistika so'zining birinchi ma'nosi ham aynan psixolingvistikaga to'g'ri keladi.

"Psixolingvistika" termini, qoida bo'yicha E.R.Daybold ta'kidlaydiki, "inson tili va verbal xulqning muayyan aspektlariga nazariy va eksperimental yondashuvlarning ayrim aralashmasini anglatadi".

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Psixolingvistikaning asosiy maqsadi—jahonning turli mamlakatlarida ushbu fan bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar haqida atroflicha ma'lumot berish, ana shu tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish, tilshunoslik bilan lingvistikaning birgalikda o'rganadigan muammolari, bu bo'yicha vujudga kelgan yo'nalishlar, oqimlarning qarashlari, ilgari surgan fikrlari, nazariy konsepsiyalarini inson psixologiyasiga aloqador jihatlari bilan tanishtirishdan iborat.

Psixolingvistikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- psixolingvistikaning paydo bo'lishi bilan tanishtirish;
- psixolingvistikaning tilshunoslik bilan aloqasini o'rganish;
- psixolingvistikaning boshqa fanlar bilan munosabatini o'rganish;

- Amerika psixolingvistika maktabi vakillarining ushbu soha bo'yicha amalga oshirgan ishlari bilan tanishtirish;
- Yevropa, Rossiyadagi psixolingvistik tadqiqotlardan xabardor qilish;
- psixolingvistikadagi yo'nalishlar va sapektlar bilan tanishtirish;
- nutqiy xulq va lisoniy qobiliyat haqida tushuncha berish;
- ommaviy kommunikatsiya ta'siri va psixolingvistikaning vazifalarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Amerika psixolingvistikasi 1953-yil yoz oyida Blumington (AQSH) shahrida yuzaga keldi. Darhol aytish kerakki, u to'liq qurollangan holda, Zevs kallasidan Afina tug'ilgandek paydo bo'ldi. Gap shundaki, 1953-yili amerikalik taniqli psixologlar Dj.Keroll va Ch. Osgudlar, shuningdek, Blumingtondagi mashhur tilshunos va etnograf T.Shabek tashabbusi bilan universitetlararo tadqiqot seminari yig'ilishi o'tkazildi. Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, tilshunoslar - Dj.Grinberg, F.Lounsbern, E.Linneberg, E.Ulenbek, Dj.Lots, psixologlar - Dj.Djenkins, G.Ferbenks, K.Vilsonlar qatnashdilar. Ikki oylik suhbatlashishning samarasi o'laroq, diskussiya davomida ishlab chiqilgan va seminarining barcha qatnashchilari tomonidan eksperimental tadqiqotlar sohasidagi asosiy amaliy masalalar mana shu qoidalar munosabati bilan yuzaga kelgan nutq hodisalari nazariy qoidalar boshlang'ichi sifatida qisqa shaklda bayon etilgan kitobi bo'ldi (Psycholingvistics. A survey of theory and research problems. Osgood and T.A.Sebeok. Baltimore, 1954. Ushbu kitob, ayni paytda, ilova tarzida ikkili jurnalda nashr qilindi- psixologik ("Journal of Abnormal and Social Psychology") va lingvistik ("International Journal of American Linguistics"). Yaqinda u fototipik holatda qayta nashr qilindi. Unga E.R.Dayboldning 1954-1964-yillarda psixolingvistik tadqiqotlari va Dj.Millerning "Psixolingvistika haqida" maqolasi qo'shimcha qilindi. Nutq xulqini kompleks tadqiq qilish bo'yicha chaqiriqlar psixolog va tilshunoslar tomonidan hali 40-yillarda ilmiy matbuot sahifalarida tarqalgan edi. Shu yillarda, qolaversa, turli tarzda qo'llaniladigan "psixolingvistika" termini paydo bo'ldi. Ushbu termin N.H.Pronkoning "Language and Psycholinguistics". "Psychological Bulletin" dagi maqolasida birinchi marta bu safar to'g'ri qo'llanildi. Nutq psixologiyasi bo'yicha

jahonda yirik mutaxassislardan biri sanalgan Djorj Millerning mashhur kitobi (G.A.Miller. Language and communication. N.Y.-Toronto - London, 1951, tarjimasi - Paris, 1956) da “psixolingvistika” termini tilga olinmaydi, ammo 1954-yildayoq muallif (to‘plam: G.Lindzey. Handbook of social psychology, v. II. Cambridge, 1954, 693-708) “Psycholinguistics” nomli maqolasini nashr qiladi. Sarlavhasi (nomi)da ushbu termin uchraydigan yana bir kitob (A.A.Roback. Destiny and motivation in language. Studies in psycholinguistics and glossodynamics. Cambridge, 1954)ning ilmga hech qanday aloqasi yo‘q). Psikolingvistikani yagona fan sifatida yaratish g‘oyasi birinchi marta 1954-yilda tug‘ildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tahlil usullari. Psikolingvistika o‘tgan asrning 50-yillarida shakllangan bo‘lsa ham, lekin uning ildizi uzoq davrlarga–tilshunoslikda anchadan buyon davom etib kelayotgan psixologik yo‘nalishga borib taqaladi. Demak, psikolingvistika XIX asr tilshunosligida hukm surgan psixologik yo‘nalishning mantiqiy davomidir. Shuning uchun ham, avvalo, psikolingvistikaning ildizi bo‘lgan tilshunoslik nazariyasidagi psixologik yo‘nalish haqida fikr yuritishga to‘g‘ri keladi.

Tilshunoslikdagi psixologik yo‘nalish ancha davrlardan buyon hukm surib kelayotgan til mohiyatini mantiqiy asosda yoritishga qarama-qarshi ravishda XIX asrning 50-yillarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga keldi.

Bu yo‘nalishning paydo bo‘lishida V. fon Humboldtning til falsafasi katta ta’sir ko‘rsatdi. Tilshunoslikda psixologik yo‘nalishning asoschisi buyuk nemis tilshunosi, V. fon Humboldtning shogirdi G.Shteyntaldir.

Psixologik yo‘nalish o‘zining dastlabki davrida an’anaviy mantiqiy yo‘nalishdan uzilishga harakat qildi. Bu asoslar quyidagicha:

Mantiqiy va grammatik kategoriyalarning o‘zaro muvofiqligi juda kuchsiz darajadadir. Ularning munosabati doira va qizil tushunchalarining munosabatiga o‘xshaydi. Mantiq umuminsoniy mohiyatga ega. Shuning uchun muayyan xalqning tiliga xos bo‘lgan xususiyatlarni ochib bera olmaydi. Mantiq gipotezalarga tayanuvchi fan bo‘lsa, tilshunoslik genetik xususiyatga ega. Ya’ni tilshunoslik “nutqiy jarayon”ni tadqiq etish bilan shug‘ullansa, bu jarayon mantiqni qiziktirmaydi.

Psixologik yoʻnalish tarafdorlari tilshunoslikning metodologik asosi sifatida mantiqni emas, balki psixologiyani eʼtirof etdilar.

V. fon Humboldt taʼsirida G.Shteyntal tilda “xalq ruhi”ning, xalq psixologiyasining ifodalanishini koʻrdi. Shuning uchun ham sotsial tabiatiga alohida eʼtibor berildi.

U davrdagi psixologiya individual psixologiya edi. Shuning uchun ham G. Shteyntal sotsial psixologiyani (etnopsixologiyani) yaratish va uni targʻib etish uchun M.Lotsarus bilan birgalikda “Etnik psixologiya va tilshunoslik” nomli jurnalni nashr ettirdi. XX asr boshlarida V.Vundt ham tilshunoslikning metodologik asosi sifatida xalq psixologiyasi haqidagi fanni yaratishga harakat qildi. Lekin u alohida fan sifatida shakllanmadi. Shunday boʻlishiga qaramay, tilshunoslikda psixologiyaga tayanish harakati bir qator yoʻnalishlarning ochilishiga sababchi boʻldi. Jumladan, tilshunoslikda xalq ruhini ochishga intilish tufayli, folklorni, mifologiyani, topishmoq, maqol, matallarga va ularda ifodalangan xalq urf-odatlarini chuqur oʻrganishga eʼtibor kuchaydi. Ular xalq donoligining ifodachilari sifatida qaraldi.

Psixologik yoʻnalish tarafdorlari V. fon Humboldt gʻoyalariga sodiq qolgan holda, tilni doimo rivojlanib boruvchi dinamik hodisa sifatida baholadilar. Bunday yondashuv qiyosiy-tarixiy tilshunoslik gʻoyalariga mos keladi. Shu bilan birgalikda, assotsiativ psixologiya tushunchalari va amalini tilshunoslikka kiritish harakatida psixologik yoʻnalish tarafdorlari jonli nutqqa, bevosita nutqiy jarayonga, tilning ichki tomoniga, soʻz va gaplarning maʼno tomoniga asosiy eʼtiborni qaratdilar. Ularning taʼkidlashlaricha, jonli nutqni oʻrganish, tilning mohiyatini va kelib chiqishini tushunishga qulay imkoniyat beradi.

Psixologik yoʻnalish vakillarining bevosita jonli nutqqa eʼtibor qaratishlarida ham V. fon Humboldtning taʼsiri kuzatiladi. V. fon Humboldt til va nutqni farqlagan holda, jonli nutqni oʻrganish jarayonida, garchi maʼlum bir til vakillari bir umumiy tilda gaplashsalar ham, ular, ayni paytda, oʻz tillariga egadir, degan xulosaga keladi. Shuning uchun jonli nutqni va ayrim paytda, individlar nutqini oʻrganish lozim, degan gʻoyani olgʻa tashlaydi.

Ma'lumki, V. fon Humboldt asarlarida "tilning ichki shakli" tushuchasi markaziy o'rin egallaydi. Bu juda keng tushuncha bo'lib, xalq ruhi, urf-odatlarini kabilarni o'z ichiga oladi.

Psixologik yo'nalish tarafdorlari ham bu tushunchaga katta e'tibor berdilar. G. Shteyntal uni til tarixiga nisbatan ham qo'llashga harakat qildi. Uning fikricha, tarixgacha bo'lgan davrda tillar juda boy ichki shaklga ega bo'lgan. Tarix davrida esa ular asta-sekin kamayib borgan. Bu fikrlar mashhur fransuz faylasufi J.Russo qarashlariga juda monanddir.

"Ichki shakl" tushuchasidan psixolog yo'nalish tarafdorlari so'zning paydo bo'lish jarayonini tushuntirib berishda ham foydalandilar. Xususan, bu tushuncha rus tilshunosligidagi psixologik yo'nalishning yirik vakili A.A.Potebnya asarlarida ham markaziy o'rinni egallaydi. Lekin A.A.Potebnya asarlarida qo'llangan "ichki shakl" atamasi ostida V. fon Humboldt tushungan "xalq ruhi" emas, balki so'zning kelib chiqishiga asos bo'lgan "obraz markazi" tushuniladi. Masalan, "medved" so'zining paydo bo'lishi uchun xizmat qilgan ichki shakl, obraz markazi ayiqning asal yeyish belgisi bo'lgan.

Til birliklarining paydo bo'lishini tushuntirishda psixologik yo'nalish vakillari psixologiyaning "assimilyatsiya", "assotsatsiya", "appersepsiya" kabi atamalardan foydalandilar. Ayniqsa, "assotsatsiya" tushunchasi A.A.Potebnyaning so'zning paydo bo'lishi, so'z etimologiyasini bayon qilishda keng qo'llaniladi.

Psixologik yo'nalish tarafdorlari yuqorida sanab o'tilgan psixologik atamalarga ko'proq murojaat qilganliklaridan ko'rinib turibdiki, ular, asosan, bevosita nutqiy jarayonga asosiy e'tiborni qaratdilar. Ular birinchilardan bo'lib, V. fon Humboldtning nutqni lingvistik tekshirish obyektiga aylantirish lozimligi haqidagi fikriga tadqiqotchilar o'z fikrlarini qaratdilar.

Tilshunoslikda psixologik yondashuv an'anasi uzoq davom etdi. XX asr boshlarida A.Marti asos solgan universal grammatika nazariyasi uchun ham ana shu yondashuv poydevor bo'lib xizmat qildi.

A.Marti universal grammatika yaratish mumkinligining nuqtasi sifatida barcha tillarning bir xil psixologik mazmunni ifodalashini va bir xil ichki qurulishga ega

ekanligini, chunki har qanday inson, qaysi tilga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, umumiy psixofiziologik tuzilishga ega bo'lishini ta'kidlaydi. A.Martining fikriga ko'ra, tilshunoslikning asosiy vazifasi universal til vositalari orqali ifodalangan mazmun va psixik funktsiyalarni aniq tavsiflash va tahlil qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Tadqiqotning obykti va predmetining belgilanishi.

Psixolingvistikaning o'rganish obyektini bir qancha turga ajratish mumkin:

- 1.Nutqning vujudga kelish mexanizmini o'rganish.
- 2.Bolalar nutqining shakllanish jarayonini o'rganish.
- 3.Turli nutqiy vaziyatda nutqni so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda o'rganish.
- 4.Nutqning axborot tashish funktsiyasini o'rganish va boshqalar¹.

Psixolingvistikaning fanlar tizimida tutgan o'rni.

Tilshunosligimizda shu paytgacha empirik asosda yig'ilgan, to'plangan til faktlarini yangi tahlil usullarini sharhlashga e'tibor berilmaydi. Psixolingvistika ana shu kamchiliklarni bartaraf qilishda yaqindan yordam beradi.

Psixolingvistika idrokning "reflektor" nazariyasiga tayanib, nutqni idrok qilishni miyaga informatsiya "quyilishi"ning bir tomonlama jarayoni sifatida qaraydi. Biz, reflektor nazariyasiga muvofiq, nutq idrok qilinishini xuddi nutqni harakatga keltiruvchi motor zvenosining majburiy ishtirokida sodir bo'ladigan faol dinamik jarayon sifatida qarashni tavsiya etamiz.

Psixolingvistika nutq identifikatsiyasi (aynan o'xshatish, tenglashtirish)² ni darajalangan tizim natijasi sifatida qaraydi. Bizning nuqtai nazarimizda, nutqning idroki va tushunulishi-darajalanishning natijasi emas, aksincha, vujudga kelgan darajalanish faol o'xshatish mexanizmining harakati natijasidir.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Kirish, III bob, umumiy xulosalar va 75 sahifadan iborat.

¹ Nurmonov Abdulhamid. Tanlangan asarlar I jildlik. Toshkent "Akademnashr" 2012.

² Кары Ниязова и проф. А. К. Боровкова "Русско –узбекский словарь" (Ташкент 1942). Стр 371

I BOB.

GRAMMATIKA VA PSIXOLOGIYA

Psixolingvistika til o'rganish va undan foydalanish asoslarini belgilovchi fikrlash jarayonlarini tahlil qilishda, psixologiya va tilshunoslikka tegishli nazariy va empirik usullardan foydalanadi. Bu jarayon o'z faoliyati davomida o'zida bir necha fanlarni jamlaydi. Tilshunoslarni doimo inson bilimining muhim belgisi bo'lgan til tuzilishining formal ta'rifi qiziqtirib kelgan. Bu tuzilma o'zida nutq tovushlari va ularning mazmunini shu bilab birga tovush va mazmunni birlashtiruvchi murakkab grammatik tizimlarni jamlaydi. Psixologlar esa bolalar bu tizimlarni qay tarzda o'zlashtirishini va bu tizimlarning so'zlashuv jarayonidagi o'rini haqida bilishni istaydilar.

Qisqa qilib aytganda, psixolingvistlarni inson yoshligidan tilni o'zlashtirib va keyinchalik foydalanilishini belgilovchi katta va teran bilim hamda qobiliyatlar qiziqtiradi. Katta, teran bilim va qobiliyatlar deganda- bu til va inson bilimining boshqa tizimlari yuzasidan tegishli hukm chiqarishdan oldin, uni chuqur tahlil qilamiz. Shu sababdan psixolingvist oldida boshqa bir olim singari, bitta muammo turadi- bu esa kuzatilayotgan faoliyatning belgilovchi omillarini tushuntiradigan teran tuzilma va jarayonlarni asoslaydi.

Kuzatilayotgan faoliyat va yashirin tuzilmalar o'rtasidagi farqni yana bir marta ta'kidlamok lozim. Ingliz tilida, boshqa tillar singari, bu farq til va nutq tushunchalarida o'z ifodasini topgan: "nutq"(speech) so'zi o'rniga to'g'ri keladigan fe'lga ega. "til" (language) esa- yo'q. Bu so'zlaganda : "He speaks the English language" (U ingliz tilida so'zlaydi) deyilgan. So'zlamok- bu biron bir ma'noga ega tovushlarni ifoda qilmoq. Bu tovushlarning ma'nosi, ularning haqiqatan ham ingliz tili bilan bog'liq ekanligi bilan belgilanadi. Nutq – bu faoliyat. Uni eshitish mumkin, uni magnitafon lentasiga yozib olish mumkin. Ammo magnitafonga ingliz tilini yozib olib bo'lmaydi. Faqat ingliz nutqini yozib olib bo'ladi. Bu bir-birimizning nutqimiz ingliz tilini bilganimiz uchun tushunamiz. Til –bu tilimizning ma'lum bir tarmog'i. Ingliz Tili – bu ingliz tilida so'zlovchi inson bilimlarining ma'lum yig'indisi. Bilimning bunday tizimlari ta'rifi tilshunoslikni an'anaviy xususiyati hisoblanadi, psixologiya esa,

muntazam ravishda “inson faoliyati haqidagi fan”, deb baholanadi. Ammo bu ikki fan o‘rtasida chegara o‘tirish juda murakkab ishdir.

Biz faoliyatni, uning tuzilish nazariyasini bilmasdan turib, o‘rgatib bilmaymiz va aksincha, tuzilmani ham faoliyatdan chetlab tahlil qilolmaymiz. Transformatsion grammatika bo‘yicha asarlari bilan hozirgi zamon tilshunosligiga katta ta’sir ko‘rsatgan Nozm Xomskiy tilshunoslikning vazifasini bilish va insoniyatning umumiy xususiyati atamaları orqali ifodalaydi.

Uning yozishicha: “Tilshunoslik bunday tahlilda fikrlashni ma’lum aspektlarini o‘rganuvchi psixologiyani oddiy bir bo‘limi” degan.

Psixologiya ko‘pdan beri mana shu aspektlar ma’nosi bilan qiziqib kelgan. Shu borada psixologiyaning turli sohalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Xatto Kalamushlarni labirintdagi faoliyati ham “o‘rganish” va “harakat qilish” atamaları borasida ko‘plab munozaralar olib keldi. Psixologlar bahslari asosini kalamushning labirintdagi faoliyati va uning u yerda nimani o‘rganishi borasidagi farqi tashkil qildi. Xuddi shu muammoga bu til qobiliyati, til haqida bilim (linguistik competence) va til faoliyati (linguistik performance) tegishli psixolingvistik muammolarni ko‘rib chiqqanda duchor bo‘lamiz. Buning asosini ham insonning nazariy jihatdan so‘zlashish va tushunish qobiliyatiga ega bo‘lishi va konkret vaziyatlarda nimani so‘zlagani va tushunishi o‘rtasidagi farq tashkil qiladi.

Psixologlarni tilshunoslikda o‘ziga charlovchi narsa shundaki, bu fan inson bilimlarini muhim sohalaridan birini mukammal ravishda va ilmiy jihatdan ta’riflaydi. So‘nggi yillarda psixologlarga Nozm Xomskiy va uning Massachuset texnologik institutidagi hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan tilshunoslikka mutlaqo yangi yondashishni uslubi katta madad bo‘ldi.

Hozirgi zamon tilshunoslikning grammatika sohasidagi tadqiqotlari o‘z navbatida psixologiyaga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ular nazariy eksperimental jihatdan o‘rganish psixologiyasini boyitib, psixolingvistikaning keyingi taraqqiyotida muhim omilga aylandi.

1. Lingvistik idrok.

Biz to'g'ri tuzilgan gapni grammatik jihatdan noto'g'ri tuzilgan so'zlar birlashuvidan farqlay olamiz. Darhaqiqat, har qanday so'zlar yig'indisi to'liq grammatik gap bo'la olmaydi.

Xomskiy tomonidan keltirilgan misollarda birinchi va ikkinchisi bu grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan ingliz tillari, uchinchi esa bundan mustasno.

The scene of the movie was in Chicago.

(Filmdagi bu lavha Chikagoda bo'lgandi).

The scene that I wrote was in Chicago.

(Men yozgan lavha Chikagoda bo'lib o'tgan)

The scene of the movie and that I wrote was in Chicago.

(Filmdagi bu lavha va u men yozgan Chikagoda bo'lgan).

Ingliz tilini grammatikasi bu holni bizga tushuntirishi lozim.

Yuqorida keltirilgan misollar bizning gap tuzish qobiliyatimiz bilan bog'liq: uchinchi gap grammatik jihatdan noto'g'ri tuzilgan, lekin birinchi va ikkinchi misollarni biz grammatik jihatdan to'g'ri tushunishimiz mumkin:

The scene of the movie that I wrote was in Chicago.

(Men yozgan filmdagi lavha Chikagoda bo'lib o'tgan).

Grammatik me'yorlarni bilish idrokimizga grammatik jihatdan to'g'ri va noto'g'ri tuzilgan gaplarni farqlashda yordam beradi.

Misol tariqasida ingliz tilidan uch gapni olamiz:

The dog looks petrifying.

(Itning ko'rinishi juda qo'rqinchli).

The dog looks barking.

(Itning ko'rinishi).

The dog looks lamb.

(Itning ko'rinishi qo'zichoqday).

Bu o'rinda ikkinchi va uchinchi gaplar grammatik jihatdan noto'g'ri tuzilgan. Ammo ularni she'riyatda qo'llanilishi asarga alohida ruh bag'ishlab bizlarga katta zavq beradi.

Qisqa qilib aytganda, sintaktik nazariyani maqsadi bu lingvistik intuitsiyani tushuntirish. Shu jihatdan, transformatsion grammatika tarafdorlari grammatika- bu tilning nazariyasi, deb hisoblaydilar. Bu nazariya grammatik jihatdan to'g'ri va noto'g'ri tuzilgan gaplarni farqlashda, til qonunlari buzilishini aniqlashda, gap tuzilmasini, uning ma'nosi va tovush shakli bilan qiyoslashda va mazkur tilda mavjud barcha gaplarni ta'riflashda katta rol o'ynaydi. Nazariya deganda har qanday ilmiy nazariya ko'zda tutiladi. Yoshligimizdan biz berkitilgan til qoidalarini bilish qobiliyatiga egamiz va bu holat bizga til tizimining qirralarini ochishda yordam beradi. Taniqli tilshunos Liz ta'rifi bo'yicha: " Grammatika aytilgan fikrlarning maksimal jihatdan umumlashgan tizimini o'zida mujassam qilishi lozim. Grammatika- bu tildan foydalanishga imkon yaratadigan insonning bilimlari yoki qobiliyatini ta'riflashga intilishdan iboratdir.

Muammoni boshqacharoq qilib ta'riflaganda, tilshunosni ilmi – bu gaplarni ajrata oladigan mashina tuzishga intilish shu jihatdan, Xomskiy va boshqa tilshunoslardan tomonidan oldinga surilgan til qoidalari mazkur mashinaga beriladigan vazifa deb hisoblanib, mashina grammatik jihatdan to'g'ri va noto'g'ri gaplarni ajratishni belgilaydi. Yoki mashinaga gap tuzilishi bo'yicha pragramma kiritib, uni barcha mavjud bo'lgan gaplarni tuza olishini va ularni barchasini grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishini ko'rish mumkin. Shunday mashina tuzilishi hozirgi nazariy jihatdan qiziqish uyg'otadi, agar mashinaga inson faoliyatiga biron bir narsani qilishiga pragramma kiritilsa, unda mashina o'z faoliyatida ma'lum qoidalarga rioya qiladi, va ular o'ziga xos psixologik ekvivalentlarga ega. Agar lingvistik qoidalar tizimi asosida tuzilgan bu dastur muvaffaqiyatli chiqsa, bu tizimda o'z aksini topgan lingvistik bilimlar psixologik jihatdan o'rinli ekanligi aytib o'tiladi.

2. Til o'zlashtirish nazariyalari.

Hozirgi davrda til o'zlashtirish borasida tug'ma qobiliyatning o'rni haqida turlicha muzokaralar olib borilmoqda. Transformatsion grammatikaning ta'siri, ekologiya sohasidagi oxirgi tadqiqotlar, o'zlashtirish va o'rganish rivoji borasidagi tahlil –bu hammasi psixologiyalarni aql rivojining tug'ma aspektlariga qiziqishini kuchaytirdi. Bu borada har bir ilmiy bahs asosida inson tilini o'zlashtirishni tushuntirish degan narsa yotadi.

Bu sohadagi hozirgi zamon nazariya va tadqiqotlarining harakterli belgisi shundaki, ular bu jarayonning universalligini belgilashga intilib, universallik asosini belgilovchi biologik tamoyillar mavjudligini oldinga suradilar.

Til o'zlashtirish nazariyalari yosh bola oldida turgan murakkab vazifa – chuqur tuzilmani aniqlab, uning ma'nosini tushunish masalasini e'tiborga olishlari lozim. Psixologik nazariyalar o'rganish asosi sifatida ta'sirlanish va rag'bat o'rtasidagi aloqa jipsligida degan fikrdan kelib chiqadi. Lekin yosh bola o'rganadigan narsani ta'sirlanish va rag'bat aloqalarini yig'indisi sifatida emas, balki ichki qoidalar murakkab tizimini belgilaydi deyish mumkin. Shu borada bola bu tizim bilan to'qnashmaydi, u ma'lum vaziyatlarda aniq gaplardan foydalanadi.

Bola til tizimini o'zlashtirishi juda murakkab masala. Ayrim olimlar xatto bola miyasi avvaldan inson nutqiga xos bo'lgan tuzilmalarni qaytadan ishlashga moslashgan va tuzilmaning qayta ishlash natijasi bu tilning transformatsion grammatikasi, deb fikr bildirganlar. Bu degani, bolada axborotni qayta ishlash uchun tug'ma xususiyatlar mavjud va ular eshitilayotgan nutqqa qaratilsa, bola o'z tilining grammatikasi tuzilishini yaratadi. Buning isboti sifatida shuni aytish kerakki, inson yoshligida o'z tilini o'zlashtirishi uchun biologik jihatdan asoslangan “keskin davr” bo'ladi va inson miyasida lingvistik vazifalarni bajaruvchi alohida tuzilmalar shakllanadi hayvonlar miyasida esa bu narsa yo'q.

Bu borada Nozm Xomskiyning fikrlarini keltirsak: “Grammatik tuzilmani o'zlashtirishda lingvistika, psixologiya yoki filosofiyada belgilangan induktiv operatsiyalarning (bo'g'in- bo'g'in tuzilishi, o'rin almashlash, modellar bo'shliqlarini to'ldirish, assotsatsiya va h. k.) intiutsiyasi emas, til o'zlashtirishning asosini bola

tomonidan o'z tilining grammatikasining mahsuli bo'lgan hayotiy narsalarni belgilovchi ma'lum tushuncha va tamoyillar yig'indisi yotadi.

Bola o'zlashtiradigan grammatikaning turi haqida so'z yuritsak, bu grammatika tuzilishi asosida til me'yorlariga zid va juda kam imkoniyatli jarayon bor, turli olimlar tomonidan tuzilgan bo'lsa ham grammatikalarning o'xshashligi, bu grammatikalarning sifat darajasi, emotsional holatdan kelib chiqmasligi, aniq bo'ladi. Avvaldan til tuzilmasining umumiy xislati haqida hech qanday axborotga ega bo'lmay, mazkur tuzilmani bu darajada o'zlashtirib bilmaydi".

Bunda mavjud axborotdan kelib chiqqan holda, shuni taxmin qilishimiz mumkin: bola tilni qabul qilishi jarayonini nazorat qilish uchun o'ziga xos transformatsion grammatika tuzadi va u orqali predmet yoki shakl sifatlarini belgilaydi. Shu sababdan til tuzilmasining umumiy xususiyatlari faqat individual tajribadan emas, balki inson bilim o'zlashtirish qobiliyatini belgilovchi umumiy qonunlarni o'zida aks ettiradi.

Psixologik o'rgatish nazariyasini yo'nalishlarini Xomskiy xulosalari asosida ko'rib chiqamiz. Bizlarni qiziqtirgan bu muammolarga klassik yondashishni mohiyati: bola o'z harakatlari "Tasdiq" (ham ijobiy, ham salbiy) oladi, va shuning asosida o'zining kelajakdagi xulqining sxemasini "umumlashtiradi". Bu sxema bo'yicha grammatik jihatdan to'g'ri nutq paydo bo'lishi mumkin-mi? Mumkin, lekin bu holat bizga bola qanday qilib to'g'ri faoliyatni belgilovchi grammatikani chuqur tushunchalarini o'zlashtirish haqida hech narsa demaydi. Bola tomonidan aytilgan gapning noto'g'riligini belgilash, unga aytilgan fikrning qaysi o'rnida xato qilinganligini aytish va keyingi safar xatoni tuzatish haqida hech qanday axborot olmaydi (agar u yana shu gapdan foydalanadigan bo'lsa) xuddi shunday ijobiy tasdiq gapda ishlatilgan grammatik tuzilmaning nimasi to'g'ri ekanligi haqida axborot bera olmaydi. Biz yana muammoga duch kelamiz. Bola qanday qilib tovushlar va ma'nolar o'rtasidagi kerak to'g'ri aloqalarni o'zlashtiradi, so'z va so'z turkumini ma'lum ma'no beradigan tartibga soladigan tamoyillarini o'rganadi.

Masalan, bola I called up him (men qo'ng'iroq qildim unga) deb, grammatika jihatda noto'g'ri gapni qurilishi salbiy tasdiq oladi. Bola keyin nima qilishni qayerdan

biladi? U bu gapni I called up foe turdagi gapga o'xshash holda tuzgan, va endi shuni tushinishi lozim-ki, obyekt sifatida olmosh (him) ishlatilsa, uning o'rni old ko'makchi o'rtasida (I called him up), lekin obyekt sifatida ot bo'lsa, u fe'l va old ko'makchi o'rtasida ham, old ko'makchidan keyin ham turishi mumkin. I called up him gapi noto'g'ri tuzilishi haqida oddiy ta'rif bolaga gapni qanday qilib to'g'ri tuzish haqida hech narsa demaydi. Binobarin, tasdiq qilish uchun bola faqat iboraning to'g'ri va noto'g'ri ekanligini belgilaydi. Bu tasdiqdan foyda chiqarish uchun bola o'zining o'rganish qobiliyatlarini va til o'zlashtirish imkoniyatlarini ishga solishi kerak. Xuddi shu qobiliyatlar va imkoniyatlar psixolingvistikani qiziqtiradi.

Shu borada, aytish lozimki, ota-onalar ko'pincha o'z bolalarining nutqidagi gaplarning grammatik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligiga e'tibor berishmaydi. Ularni ko'proq gap tuzilmasi emas, balki bola nima demoqchiligi qiziqtiradi. Garvard universitetda faoliyat ko'rsatuvchi Goduer Braun yoshi 1,5 dan to'rtgacha bo'lgan uch bolani nutqini tadqiq qildi. Bir necha yillar mobaynida har haftada ona va bola o'rtasidagi so'zlashuv diktafonga yozib olindi. O'zining tadqiqotida Braun va uning hamkasblari to'plangan material asosida ona va bola orasida grammatik nutqni tahlil qilishga kirishdilar. Shu tariqa Braun asosiy e'tiborni bolaning gapi ona tomonidan ma'qullangan yoki ma'qul ko'rmaslik vaziyatlarga qaratdi. Bolaning grammatik savodxonligi rivojlanishida ota-onalarni ta'siri yo'qligi ayon bo'ldi. Xulosa qilib Braun: " Qanday holatlar bola bildirgan fikrni ota-ona tomonidan ma'qullash yoki ma'qullamaslikka olib keladi? Ba'zan, ota-onalar so'z tanlashdagi qo'pol xatolarni to'g'rladilar. Masalan, Eva what the guy idea! (Naqadar qo'rqitadigan fikr!) deganida ayrim vaqtlarda so'z aytilishidagi xatolarga ham e'tibor berildi. Ammo ko'p hollarda aytilgan fikrni ma'qullash yoki ma'qullamaslik sabablari, jiddiy qilib aytganda, til bilan bog'liq emas edi, Eva o'zining "mening onam-qizaloq" degan fikrini bildirganda, uning onasi "To'g'ri" dedi. Bolaning fikri grammatik jihatdan noto'g'ri bo'lsa ham, ona gapni mantiq jihatdan ma'qulladi. Ko'pincha ota-onalar gapni asl ma'nosiga e'tibor berishmaydi. Jumladan, Her cure my hair (Unga mening sochimni jingalak qildi) kabi fikr, ona tomonidan ma'qullandi, Chunki u haqiqatdan ham Eva sochini jingalak qilib turgandi. Bu borada Sara aytgan grammatik jihatdan to'g'ri There 's the

animal farmhouse (Ana ferma) gap ma'qullanmadi, chunki u yerda mayak edi; xuddi shunday holda Adamning walt pishey comes on, on Tuesday (seshanba kuni Volt Disney paydo bo'ladi) iborasi kutib olindi, chunki Volt Disney boshqa kuni paydo bo'ladi). Demak, ota-onalar tomonidan, asosan, gapning sintaksis jihatdan mukammalligi emas, balki haqiqiyliги tasdiqlanishga turtki bo'ladi. Bundan paradoksal bir holat kelib chiqadi: yoshi katta odamning nutqi grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, har doim ham haqiqatni bildirmaydi.

Bolalar yangi til shakllarini ota-onasining nutqidan, ularga taqlid qilib o'zlashtiradi, bola yangi narsani eshitib, uni takrorlaydi va bu orqali yangi ma'lumotga ega bo'ladi. Bu jarayon bola mustaqil fikrlay olib, nutqini bexato shakllantira oladigan bosqichgacha davom etadi.

Ammo, ikki so'zdan iborat bo'lgan gaplarni ko'rib chiqsak ham, bolani bildirgan fikrini kattalar nutqini qisqartirilgan ilmitatsiyasi deb bo'lmaydi. Bundan tashqari, agar bola hamma eshitgani ilmitatsiya qilib bilgan holda ham, u avval eshitmagan yangi gaplar tuzib bilmas edi. Bunga yangi bir misol, so'zlab bilmaydigan, lekin normal holda eshitadigan bolalar til qobiliyati- tushunish darajasidan mahrum bo'lmaydilar. Erik Leppeberg tovushli nutq chiqara olmaydigan, ammo ingliz gapini xususiyatlarini har tomonlama tushunadigan bola haqida so'z yuritgan. Demak, nutqi turishi va uni interpretatsiya qilishi jarayonlari asosida bir xil bo'lgan til qobiliyati yotadi. Soqov bola nutqni ilmitatsiya qila olmaydi va o'z nutq faoliyatida hech qanday tasdiqlay olmaydi- lekin bu til o'zlashtirish qobiliyatga halaqit bera olmaydi.

Psixologlarni bunga katta e'tibor berishini sababi balki shundaki, ular bolaning grammatik rivojini murakkabligini anglab ololmaydilar va bola eshitadigan nutqini mohiyatini adekvat tarzda tushunib bilmaydilar. Asosiy omil shundaki, katta miqdorda qabul qilingan nutq ham grammatika tug'ulishi uchun yetarli manba bo'la olmaydi. Gapning yuzini tuzilmalari shu gaplarni interpretatsiya qilish uchun yetarli axborot bera olmaydi.

Til o'zlashtirishni oddiy modeli bo'yicha bola so'zlarni eshitib, assotsiatsiya orqali o'zining nutqida bir-birisi bilan bog'liq bo'lgan so'z bo'g'inlardan foydalanadi.

Til o'zlashtirishni murakkab modellari bevosita tuzuvchi grammatikalarga asoslanib, gap so'z sinflari bo'g'inlaridan iborat deyishadi (masalan, artiq-lot-fe 'l va h.k.). Bu modellar bo'yicha bola so'z sinflarini o'rganadi, masalan, ot va fe 'l va ular gapda egallaydigan pozitsiyalarni (o'rnini) bilib oldi. Shu orqali bola boy (bola) va dog (it) so'zlarini bir sinfga mavjud ekanligini bilib, ular the artiq-lidan keyin turishini anglab oladi. Bu orqali bolalar gapni chuqur tuzilmalarini tushunib yetolmaydilar. Masalan, dog (it) so'zning gapdagi o'rnini belgilash uchun mazkur misollarni olamiz: Look at the dog. (Qara itga). The dog is here. (It bu yerda). The dog is furry. (It momiqday). This is my dog. (Bu mening itim). This is my big dog. (Bu mening katta itim). That 's no dog. (Bu umuman it emas). Dont kich Jimmy 's dog. (Urma Jimmining itini). Put the hat on the dog. (Itga qalpoq kiydir) . He was bitten by a dog. (Uni it tishladi). Wxose dog bit him? (Uni kimni iti tishladi?) Was it your dog that got lost?) (Yo'qolgan sizni itingizmi?). Bu gaplar oddiy so'z bo'g'inlari emas, lekin ular so'z sinflarining oddiy bo'g'inlari ham emas.

Bola ishlab chiqishi lozim bo'lgan qoidalar chuqur grammatik tuzilmalarga tegishli bo'lib, yuzaki tuzilmalada o'z ifodasini topishi lozim. Aytilgan fikrni yuzaki tasnifi bilan bog'liq psixologik nazariyalar til axborotini katta ishlash jarayonini tushuntirishga qodir emas. Til o'zlashtirish nazariyasining adenvat shakli hali yo'q. hozirda mavjud bo'lgan an 'anaviy psixologik nazariyalar bu muammoni uzil-kesil yecha olmaydi. Yaqin kelajakda bahs va tadqiqotlar psixologiyada katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Buni natijasida inson psixologik tabiatini murakkab tasviri paydo bo'ladi. Uning negizida murakkab tug'ma aql tuzilmalari yotadi va ular ko'p borada rag'bat va ta'sirlanish o'rtasidagi aloqa bilan chambarchas bog'liqdir.

3. Transformatsion grammatika.

Bevosita tuzuvchi grammatika tuzilishi qoidalariga asoslanib, uning yordamida ma'lum bir belgilar ularning boshqa turlariga ko'chiriladi. Bu holatni misol tariqasida ko'rib chiqamiz:

The boy hit the ball.

(Bola koptokni uloqtirdi).

What did the boy hit?

(Bola nimani uloqtirdi?).

Bu ikki gap bir- biri bilan bog'liq, ammo bevosita tuzuvchi grammatika bu aloqani o'zida aks qila olmaydi. So'rovchi so'z what hit so'zining obyektini haqida savol qo'yadi. Birinchi misolda hit so'zining obyektini sifatida the ball so'zi chiqadi. Ikkinchi misolda obyekt yo'q, so'rovchi so'z esa gapni boshida joylashgan. Aftidan, the ball va what so'zlari ikki misolda ham fe'lga nisbatan bir xil rol o'ynaydilar.

Transformatsion grammatika atamalarida bunday savol obyektning ot guruhini o'rniga so'rovi savol ishlatish va shu so'zni gapning boshiga o'tirish yo'li orqali amalga oshiriladi. Shu borada tilni transformatsion grammatikasida qoidalarining ikki turi va ta'riflashni ikki darajasi mavjud bo'lishi lozim: chuqur tuzilmalarni tug'diradigan grammatika, va chuqur tuzilmalarni yuzaki turlariga aylantiradigan qoidalar.

Tasdiqlovchi gapni so'roq gapga o'tish jarayonini tahlilga solamiz: He boy hit the ball, He boy hit what (Bola uloqtirdi nimani?), What the boy hit? (Nimani bola uloqtirdi?). Oxirgi gap hali ikkinchi misolga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Qo'shimcha o'zgarishlar kiritish kerak. Shu borada gapga did fe'li qo'shiladi. Uning kelib chiqishi ko'makchi do fe'li bilan bog'liq. Bu ko'makchi fe'l o'zining to'g'ri holati, ya'ni egadan oldinda turadi, va bu pazitsiya fe'lni o'tgan zamon shaklida ham saqlanadi.

Do fe'lining shakllarini boshqa gaplarda paydo bo'lishini tushuntirish uchun mazkur misollarda ko'rib chiqamiz:

The boy didn 't hit the ball.

(Bola koptokni uloqtirmadi).

What didn 't the boy hit?

(Nimani bola uloqtirmadi)

Did the boy hit the ball?

(Bola koptokni uloqtirdimi?).

Didn 't the boy hit the ball.

(Bola uloqtirdi koptokni).

Bu yerda o'zgartirish jarayoni oddiy holda, ya'ni o'rin bosish (masalan, ball so'zi o'rniga what so'zini ishlatish), o'rin o'zgartirish (what so'zi birinchi o'ringa qo'yiladi). Joyini o'zgartirish (masalan, ega va ko'makchi fe'lni) va boshqa operatsiyalar orqali bunday operatsiyalar har bir tilga munosib hol hisoblanadi.

Yana birinchi misolga qaytsak, bu yerda transformatsion grammatikaning yana bir muhim omili ochiladi. Bu gapda ko'makchi fe'lning asl shakli bo'lmasa ham, gapning chuqur tuzilmasida abstrakt holda bo'lsa ham ko'makchi fe'l bo'lishi kerak, chunki bu fe'l u bilan bog'liq inkor etadigan va so'rovchi gaplarda paydo bo'ladi. Shu tariqa, nutqimizda qo'llaniladigan so'z tuzilmasi orqali gap haqida to'la ma'lumot olib bo'lmaydi. Lingvistik tuzilmalarni yashirinch va oshkora, ya'ni "chuqur" va "yuzaki" shakllarni farqlash transformatsion grammatikani tilshunoslik va psixologiya fanlariga qo'yilgan muhim yutug'i hisoblanadi.

Gapning interpretatsiya (ya'ni izoh berish) qobiliyati asosida bizning bildirilgan fikrni bayon qiluvchi mantiqli da'voni mohiyatini uddalashimiz yotadi. Oddiy qilib aytganda: Kim, nima qiladi va harakat nimaga yo'naltirilgan? Aktiv gap bo'lgan Polise club demonstratori (Politsiya demonstratsiyachilarni tarqatayapti), unga to'g'ri keladigan passiv gap Demonstratsiyachlar politsiya orqali tarqatildi) ma'nosi bir ikkala holatda ham biz fe'lni subyekt va obyekt shakllarini aniqlashimiz mumkin. Ammo bevosita tuzuvchi grammatika doirasida har xil yuzaki tuzilmalar bo'lishini tushuntirib bo'lmaydi.

Gapni interpretatsiya qilishda yuzaki tuzilmadagi o'rin belgilaydi degan fikr paydo bo'lmasligi uchun quyidagi passiv gaplarni ko'rib chiqamiz:

(Ularni politsiyachilar ushlab qoldi).

They were bloched by forse.

(Ular kuch ishlatib qo'lga olindi).

Bevosita turuvchi grammatika nutqni nazariyada bu ikki gapni har xil taqlidi uchun hech qanday asos yo‘q. Bu grammatikaga muvofiq, ikki gapni tuzilishi bir xil. Lekin bu tuzilmalar har xil tushiniladi va grammatika buni isbotlashi lozim. Polise- bu mantiqiy subyekt, yani birinchi gapdagi harakat qiluvchi shaxs : forse ikkinchi gapda bunday sintaktik rolni o‘ynamaydi. Itlar gapni tuzilishini bilishimiz bizga harakat qiluvchi shaxs aytilmagan bo‘lsa ham xuddi o‘sha o‘zi kuch ishlatgani haqida guvoh beradi. Shu sababdan bu ikki gapni har xil parafrazalar bila qo‘shsa bo‘ladi: birinchi gap boshqacha qilib Polise blocked them (Politsiya ularni ushlab qoldi), ikkinchisi esa- Somebody blocked them by forse (Kimdir ularni kuch ishlatib qo‘lga oldi) tarzida ifodalanishi mumkin. Bu gaplar har xil tarzda tushiniladi, chunki ular turli “Transformatsion tarjimai holga ega” . Yuzaki qaraganda, ularning tuzilmalari bir xil, lekin bu tuzilmalar boshqa yashirin, ya’ni chuqur, tuzilmalardan kelib chiqadi. Transformatsion grammatikani mohiyatini gapni izohini mana shu ikki me’yorini belgilashdan iborat: yuzaki me’yordan, u biz eshitadigan holda tuzilgan shakli bilan bog‘liq, chuqur me’yordan, u bevosita gapni ma’nosi bilan bog‘liq.

Chuqur va yuzaki tuzilmalar o‘rtasidagi farq turli shakllarda o‘zining irodasini topadi. Masalan: John was looking the word up. (Unga shu qariyaga turmushga chiqish juda yoqmas edi).

Bu yerda look up birlik yasaydi, ammo bunda ular turli yerda joylashgan, va shu borada was bu –ing o‘rtasidagi birlikni belgilovchi bir narsa bo‘lishi kerak. Bu holat mantiqiy ravishda amalga oshiriladi.

Transformatsion grammatikaga oid shunga o‘xshagan holatlar juda ko‘p. Bu borada Xomskiy shunday ta’rif bergan:

Qisqa qilib aytganda, ayonki yuzaki tuzilma ko‘p hollarda aldamchi va axborotsiz bo‘ladi va bizning til haqida bilimimiz o‘zida tabiiy jihatdan abstrakt va yuzaki tuzilmadan uncha bilinmaydigan belgilarni jamlaydi. Bundan tashqari, bu sun’iy ravishda osonlashtirilgan misollar shundan dalolat beradi-ki, tilga qobiliyat har xil atamalar va xulqni o‘rgatuvchi tushunchalar orqali ifodalash mutlaqo umidsiz narsa”.

Bu borada til qobiliyati gapni semantik izohini uning akustik-fonetik shakli bilan bog'laydigan qoidalar tizimi sifatida tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, sintaktik-bu tovush va ma'nolarning munosabatdoshligini belgilovchi isbotdir. Bunaqa model bizni juda jiddiy psixologik muammolarga to'qnashtiradi aytilgan fikrni ma'nosi biz eshitadigan ifoda qilinmagan bo'lsa, unda psixologiya juda murakkab bo'lgan ichki fikrlash tuzilmalar nazariyasini ishlab chiqishi lozim, ular gapni paydo bo'lishi va tushinilishiga imkon beradilar. Bu nazariya faqat kuzatishga mumkin bo'lgan narsalarga asoslanmaydi, chunki kuzatiladigan xulqda nutq jarayonlari haqida to'liq axborot mujassamlanmaydi. Va rivojlanishni o'rganuvchi psixologlar bolalar nutq o'rganishi jarayonini har xil atamalar orqali ifodalashi mumkin emas, chunki bola har xil mulohazalar yig'indisi bilan emas, balki mulohazalarni ishlab chiqish uchun qoidalar tuzishni o'rganib oladi. Bu yerda biz asosan transformatsion grammatikani sintaktik belgisi haqida so'z yuritdik. Biz gapning chuqur va yuzaki tuzilmalari haqida gapirdik. Bu grammatika ya'ni ikki komponentdan iborat bo'lib, ular haqida ko'p to'xtalib o'tirmaymiz. Birinchidan, bu fonologik komponent, u yuzaki tuzilmalarni aytilgan fikrlarni tovush shakliga soldi. Ikkinchi asosiy semantik komponent hozir ham qoniqarli ta'rifga ega emas. Bu komponent chuqur tuzilmalarni ma'nolar bilan bog'laydi. Semantikaga oid savollar hozirgi kunda transformatsion grammatikada katta muzorakalarga sabab bo'lmoqda. Shubhasiz, sintaktik va semantika o'rtasidagi aloqa tilshunoslikda keying yillarda yangi tadqiqotlarning diqqat markazida bo'ladi. So'zimizning oxirida taniqli tilshunos Xomskiyning transformatsion grammatikani mohiyati haqida bildirgan fikrini keltirishni lozim topdik. Bu ta'rif, bizning fikrimizcha, barcha insoniyat tillariga mansub.

“Grammatika umumiy olganda fonetik jihatdan ifodalangan signallarni semantik izohlar bilan bog'lovchi asbob sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, bu bog'lanish sintaktik komponent natijasi bo'lgan abstrakt tuzilmalar tuzilishi orqali mavjud bo'ladi. Bu sintaktik komponent har bir gap uchun (aniq qilib aytganda, har bir gapning izohi uchun) semantik ravishda izohlanadigan chuqur tuzilma va fonetik ravishda izohlanadigan yuzaki tuzilmani yaratish maqsadida qo'llaniladi va bu ikki tuzilma bir-biriga ma'qul kelmasa ular orasida aloqa bog'laydi. Qo'pol qilib aytganda,

“ Tuzilmalarni ko‘pligi” tuzuvchi grammatikaning barcha nazariyalariga mansub bo‘ladi, va to‘xtab jiddiy tafovutlar boshlanadi”.

I bob bo'yicha xulosa.

Qisqa qilib aytganda, psixolingvistlarni inson yoshligidan tilni o'zlashtirib va keyinchalik foydalanilishini belgilovchi katta va teran bilim hamda qobiliyatlar qiziqtiradi. Katta, teran bilim va qobiliyatlar deganda- bu til va inson bilimining boshqa tizimlari yuzasidan tegishli hukm chiqarishdan oldin, uni chuqur tahlil qilamiz. Shu sababdan psixolingvist oldida boshqa bir olim singari, bitta muammo turadi- bu esa kuzatilayotgan faoliyatning belgilovchi omillarini tushuntiradigan teran tuzilma va jarayonlarni asoslaydi.

Hozirgi zamon tilshunoslikning grammatika sohasidagi tadqiqotlari o'z navbatida psixologiyaga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular nazariy eksperimental jihatdan o'rganish psixologiyasini boyitib, psixolingvistikaning keyingi taraqqiyotida muhim omilga aylandi.

II BOB.

PSIXOLINGVISTIKADA MA'NO VA MAZMUN MUAMMOLARI

Ma'no – bu til nazariyasidagi eng noma'lum va ziddiyatli tushunchalardan biridir. Ma'no shu darajada bizning til qo'llanilishimiz bilan chambarchas bog'liq-ki, uni chegaralarini belgilash juda qiyin, til ma'nosi bizga gapni to'g'riligini baholashga imkon beradi, gapni qayta qurishga, qo'shimcha ma'nolarni tushunishga va so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishga yordam beradi. Yosh vaqtimizdan bu so'zlarni, vaziyatga va bir-biriga mos ravishda ishlatishga o'rganamiz. Kattaligimizda o'rganib, u haqda so'z yuritib va bahs olib boradigan narsalarni ko'pchiligi so'z va fikr ma'nolarini topish bilan bog'liq.

Psixolingvistika til ma'nosi muammosida ikki yo'nalishni belgilasa bo'ladi: tuzilmasi jihatdan, u ma'noni parametrlarini va xususiyatlarini belgilaydi, va ma'noni diqqat markazida til ma'nosini o'zlashtirish va tushunishi muammolari turgan jarayon sifatida ko'rib chiqish.

Ma'no asosini belgilovchi tuzilmalar ko'pgina mutaxassislarni - lug'at tuzuvchi, filolog, ayrim tilshunos, filosof, psixolog va antropologlarni qiziqtiradi. Ularni ma'noning parametrlari va turlari, so'z ta'rif, so'z birikmasini gapda ma'no qabul qilishi kabi savollar qiziqtiradi. Bu narsa bola to'g'ri va ma'noli fikr bildirishi maqsadida o'rganishi lozim, ammo tahlil va tuzilma muammolarini qanday qilib til o'zlashtirilishi haqidagi savolni yechmagan holda ham tadqiq qilsa bo'ladi. Asosiy vazifa- bu leksikani birliklarini semantik belgilarini ta'riflash. Bu muammo ko'proq fonologiyada differentsial belgilarni aniqlash bilan o'xshash. Bu vazifa- ma'no birliklarini asosiy – umumiy yoki spetsifik – xususiyatlarini ta'riflashdan iborat.

1. Psixolingvistikada so‘z ma’nosi.

Bu borada ikki aspektni belgilash lozim- so‘z ma’nolarini va uning komponentlari muammolari va so‘z birikmasining gapdagi ma’nosi muammolari. Jiddiy qilib aytganda, “So‘z” til tahlilining birligi bo‘la olmaydi, chunki so‘z ikki yoki uch birlikdan iborat bo‘lishi mumkin. Demak, old qo‘shimcha va suffikslar ham o‘zlari ham bir ma‘noni anglatadi. Ammo so‘zlarni ma‘noning minimal birliklari deb ko‘rib chiqishimiz mumkin. Tadqiqotimizda mustaqil ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar bilan chegaralanishimiz lozim.

Avvalambor, ma‘noning denotativ (lot. denotare-belgilamoq)³ tahlili bo‘lishi kerak. Denotativ ma‘noning murakkab muammolari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilardan biri antropologlar bo‘ldi. Ularning ishlari yana bir qiziqarli tadqiqot uslubi paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu “komponent tahlil”dir.

So‘z ma‘nosini semantik komponent (bo‘lak) larga bo‘lish imkoni asosan turli xalqlarni qarindoshchilik atamaları tadqiqotlari natijasida paydo bo‘ldi. Buning maqsadi bir necha chuqur- fonologiyadagi differentsial belgilar kabi - tasniflarni ta’riflashdir.

Komponent tahlil mohiyatini ingliz tilidagi qarindoshlik atamalarini tizimi asosida ko‘rib chiqamiz. Bizning vazifamiz- ingliz qarindoshlik atamaları o‘rtasida qanday semantik komponentlar farqlari borligini belgilash. Uolles, Gudinaf, Atkins kabi shu muammo bilan shug‘ullangan antropologlar uch parametрни belgilaydi, ular asosida Amerikada “yaqin qarindoshlik”ni belgilovchi barcha atamalarning tasnifini tuzib bo‘ladi.

Chuqur tahlil qilish maqsadida, biz qiziqtirayotgan jamiyatda ishlatiladigan barcha qarindoshlik atamalarni to‘liq ro‘yxatini tuzishimiz lozim. Biz ikki o‘tgan va ikki bo‘lajak avlod bilan chegaralanamiz. Shunda biz mazkur atamalar ro‘yxatiga ega bo‘lamiz: father (ota), mother (ona), grandfather (buva), grandmother (buvi), son (o‘g‘il), daughter (qiz), grandson (nabira o‘g‘il), granddaughter (nabira qiz), unde (tog‘a), aunt (hola), nephew (jiyan o‘g‘il), niece (jiyan qiz), brather (aka), sister (opa),

³ Azim Hojiyev “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” . “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.

consin (amakivachcha, holavachcha). Uolles va Atkin ta 'rifi bo'yicha bu terminlarning barchasi, "consin" so'zidan tashqari, qarindoshning jinsini belgilaydi. Ayrimlari esa avlodni belgilaydi. Ayrimlari bevosita ("lineals") qarindoshlikka ega, yoki gapirayotganni ajdodlari yoki avlodini belgilaydi, boshqalari esa bilvosita ("nonlineals") qarindoshlikka ega, ya'ni gapirayotgan bilan bir ajdodga ega bo'lib, o'zlari unga nisbatan ajdod yoki avlod emas. Bu qarindoshlar o'z navbatida ikki turga bo'linadi: "yondosh" ("colineals") – ularning ajdodlari gapirayotgan ajdodlari bir-biriga mos va "uzoq" ("ab-lineals") – ularning ayrim ajdodlari gapirayotgan ajdodlariga to'g'ri keladi.

Buning hammasi, Uolles va Atkinnga har bir keltirgan terminni tasnifi uchun uch parametr lozimligini ta'riflashga asos bo'ldi.

Qarindoshning jinsi (erkak=a, ayol=a)

Qarindoshning avlodi (gapirayotgan ikki avlod katta= $b+g$, bir avlodga= $b+1$, gapirayotganning avlodi=0, bir avlod keyin= $b+1$).

Chiziqlilik: to'g'ri chiziq= c (bu yerda gapirayotganning bevosita ajdodlari yoki avlodi kiradi), yondosh chiziq = c (bu yerda gapirayotgan bilan barcha yoki bir necha ajdodlarga ega qarindoshlar kiradi) va uzoq= c (bu yerda to'g'ri yoki yondosh chiziqdosh qarindosh bo'lganlar kiradi. Bu bo'yicha Uolles va D, Atkins shunday degan: "Har bir atama tiklangan komponentlarga munosib ravishda shunday ta'riflanishi kerak-ki, u boshqasini yo'lini to'smay unga o'tmasligi kerak; har bir komponent kamida bir atama bilan farqlanishi lozim; barcha atamalar bir turlash jadvalida mujassam bo'lishi kerak. Bizning tasnif eng mukammali deyotganimiz yo'q, lekin u mazkur atamalar yig'ini uchun juda mos".

Bunday komponent tahlil amerikalik qarindoshlik atamalar bilan qiyoslashda katta yordam berishi mumkin. Masalan, nemis tilida qarindoshlilik jinsi ham belgilanadi (a-a) : Kusin (amakivachcha) va Kusine (holavachcha) ingliz tilida bunday farq yo'q. Nemislarning qarindoshlik atamalar tuzishi inglizlardan uncha farq qilmaydi, yangi bir komponentni qo'shish ahamiyati yo'q. Ammo turk tilida abla (katta opa) kabi atama mavjud. Bu termin ingliz tizimiga qo'shila olmaydi, chunki bu

yerda osh komponenti yo‘q, (faqat avlod). Mazkur turk atamasini ingliz sxemasiga qo‘shish uchun yana bir semantik komponent zarur- “Gapirayotgandan katta”.

Komponent tahlil mazkur atamalar tizimining chuqur differentsial semantik belgilarini belgilash uchun juda foydali uslub. Ammo bu yerda ikki muhim muammo tug‘iladi. Birinchidan, bu ma’lum bir semantik doirani tahlili psixologik jihatdan haqiqatga yaqinmi, ya’ni bizning qarindoshlik atamalariga real munosabatimizni belgilab oladimi? Ikkinchidan- bu yana ham jiddiy savol- komponent tahlilning bunday shakli boshqa turdagi semantik tizimlarning tadqiqotida qo‘llaniladimi? Avval psixologik haqiqiylik haqida so‘z yuritamiz.

Bu savol juda muhim, chunki ko‘pgina antropologlar ular umumlashgan atamalar tizimi yaratib, gapirayotgan, ongida mavjud bo‘lgan, kognitiv tuzilmalarini ifodalaydilar, deb ta’riflashadi. Komponent tahlilni xuddi shu muammosi psixolingvist uchun qiziqish yaratadi. Biz komponent tahlilini turlicha shakli bilan yondashganda bu savol alohida tus oladi. Qaysi shakl yaxshi ekanligini qanday aniqlasa bo‘ladi?

Bu savol Romni va Andrad tomonidan “Ingliz qarindoshlik atamalarining kognitiv aspektlari” nomidagi maqolasida batafsil ko‘rib chiqamiz. Bu maqolada mualliflar Uolles va Atkins sxemasi ingliz qarindoshlik atamalariga xos yagona narsa emasligini ta’riflaydilar. Ular tahlilni boshqa variantini taklif qilishdi. Ularning tizimida “yonbosh” va “uzoq” turlari bir kategoriyasiga birlashib, “to‘g‘ri” (direct) turi qarama-qarshi qo‘yilgan jins va avlod bu yerda ham muhim komponent hisoblanadi. Bundan tashqari, yangi komponent kiritilgan “O‘zarolik” (reciprocity). U ota-bola, amaki-jiyan kabi turdagi atamalar juftligiga munosib. Bu komponentlardan foydalanib, Romni va D, Andrad yangi sxema tuzishdi.

Ular mazkur sxema bo‘yicha shunday yozgan:

“Punktir chiziqlar oddiy operatsiyalar yo‘li bilan olinadigan atamalar o‘rtasidagi munosabatlarni ifoda qilishi bois, shuni aytish lozim-ki, punktir chiziqlar bilan birlashtirilgan terminlar uzluksiz chiziqlar orqali bo‘lingan atamalarga nisbatan bir-biriga “yaqin”. Punktir chiziqlar tahlil jarayoni natijasida paydo bo‘ladilar”.

Endi ikkinchi savol: agar tahlilning ikki turi mavjud bo‘lsa, ularning qay biri “bizning boshimizda bo‘layotgan” narsalarni haqiqatdan ham ta’riflaydi, ikkisidan

birimi, yoki ikkisi ham, yoki birontasi ham. Turli amerikaliklar har xil tuzilmalardan foydalanishganmi yoki biron bir amerikalik turli vaziyatlarda turli tuzilmalarni qoʻllaydimi? Romni va D, Andrad taʼriflashicha, “Bizning fikrimizcha, hamma vaqt, har qanday qarindoshlik atamalari tizimi tahlili uchun bir qancha uslub topish mumkin. Biz bu tahlilni psixologik yoki kognitiv aspektlari haqida soʻz yuritganda, bu aspekt chegaralarini aniq belgilashimiz kerak boʻladi. Ayrim tahlil uslublari bir maqsadlarda foydali boʻlishi mumkin, boshqa vaziyatlarda esa unchalik emas. Biron bir hukm mazkur tizim uchun optimal ravishda mos, deb boʻlmaydi”.

Romni va D, Andrad bu ikki analitik tizimni toʻliq qiyoslab oʻrganishdi. Bizningcha, shuni taʼkidlash lozim-ki, ularning tizimida asosiy urgʻu nuklear oila vakillari (ota-ona-oʻgʻil-qiz) va boshqa qarindoshlar oʻrtasidagi farqni belgilashga qaratilgan. Bunday oila “Tabiiy birlik” kashf etib, ammo Uolles va Atkins sxemasida aks qilinmagan, balki Romni va Andrad ingliz qarindosh atamalarining semantik tuzilmasini taʼriflash uchun toʻgʻri yoʻl tanlashgan.

Bu ikki tadqiqotchi oʻzining xulosalarini tashqi koʻrsatmalar orqali asoslaganlari yoʻq.

Ular komponent tahlilining tizimini psixologik haqiqiylikni dalilini inson xulqida ham izlashgan. Amerikalik talabalar guruhi bilan birga ular bir necha nozik eksperimentlar amalga oshirishadi. Ularning taʼkidlashicha, “Komponent tahlil kognitiv munosabatlarni shu darajada ifodalaydi-ki, ikki atama koʻproq umumiy komponentlarga ega boʻlsa, ularning taʼsiri ham juda oʻxshash boʻladi. Bu taʼrif shunga asoslanadi-ki, har qanday atamaning komponentlari uning maʼnosini ham asoslaydi; demak, umumiy komponentlar qay darajada koʻp boʻlsa, maʼnolarda ham oʻxshashlik koʻp boʻladi”.


Avvalambor tadqiqotchilar 105 talabani ingliz tilida qarindosh va oila avlodlarini belgilovchi soʻzlar roʻyxatini tuzishga chorladilar. Shu ayon boʻldi-ki, ayrim atamalar boshqalarga qaraganda koʻproq ishlatildi va koʻpincha roʻyxat boshida, talabalar koʻproq ota va ona soʻzlarini bayon qilishdi. Yaʼna bir narsa ayon boʻldi-ki, oʻgʻil va qiz soʻzlari unchalik koʻp ishlatilmagan, faqat soʻroq qilinganlardan uchdan bir foizi. Balki qarindoshlik atamalar bilan bogʻliq kognitiv tuzilmalar maʼlum

darajada yosh bilan bog‘liq. Romni va D, Andrad ular kiritgan “O‘zarolik” komponenti juda foydali ekanligini ta’riflaydi: ota-ona va tog’a-amma turdagi o‘zaro juftliklar a’zolari ro‘yxatlarda ko‘pincha birgalikda aytib o‘tilgan.

Bu ko‘rsatmalar atamalarni ularning analitik sxemada birlashtiruvchi aloqalarni to‘g‘riligini isbotlashdi. In-law, great, half, second turdagi modifikator so‘zlar orqali paydo bo‘lgan atamalar guruhi sxemada berilgan guruhlar bilan hamisha to‘g‘ri kelgan.

Romni v D, Andrad sinov o‘tayotganlarga qarindoshlik bilan bog‘liq uch atamadan iborat guruhlarini taklif qilishdi, va boshqalaridan katta farq qiladigan terminni belgilashni aytib o‘tishdi. Hamisha shu namoyon bo‘ladi-ki, bir komponent bilan farq qiladigan atamalar bir guruhga birlashadilar, har xil komponentlardan iborat terminlardan farqli o‘laroq masalan, bir oilaga oid atamalarning aloqalarini ko‘rib chiqamiz. Bu yerda biz faqat ikkita komponent bilan to‘qnashamiz- jinsi va avlodi. Ota va ona bir avlodga mansub bo‘lib, jins komponenti bo‘yicha farqlanadi. Ota va o‘g‘il jinsi bo‘yicha bir komponentga ega, ammo avlod komponenti bilan farqlanadi. Ota va qiz bu ikki komponentdan hech qaysiga ega emas (ammo boshqa umumiy komponentlarga ega). Bu to‘rt termindan paydo bo‘ladigan uchliklarni qiyoslab va sinov o‘tuvchilarga taklif qilingach, Romni va D, Andrad shuni bayon qilishdi-ki, “Ota termini qizga nisbatan otaga yaqin bo‘ladi, va qizga nisbatan o‘g‘ilga yaqin bo‘ladi. Bu holatning bo‘lishi, jins komponenti avlod komponentidan kuchliroqligidan farqli o‘laroq sodir bo‘ladi. Ya’ni, sinov o‘tuvchi jinsiy farqlarga e’tibor bermay, avlod farqini birinchi o‘ringa ko‘tarsa, jinsiy belgi ma’lum darajada tasnifda paydo bo‘ladi: ota o‘g‘il bilan guruhlashadi, qiz bilan emas”.

Quyida berilgan sxemada to‘rt atama o‘rtasidagi juft aloqalar berilgan. Qavs berilgan sonlar mazkur terminlarni bir juftga birlashtirgan holatlarni o‘rtacha soni



Sxemadan shunisi ayonki, bu ko'rsatmalar bashorat qilinganlar bilan teng keladi. Sinov o'tuvchilardan birontasi ham atamalarni birlashtirganda ikki har xil komponentlarni ishlatmadi. So'z uchliklari bilan bog'liq boshqa murakkabroq eksperimentlarda Romni va D, Andrad shunga amin bo'lishdi-ki, atamalar o'rtasidagi aloqalarga nisbatan ularning bashoratlari Uolles va Atkins sxemasi asosida qilingan bashoratlarga qaraganda ko'proq o'zining tasdiqini topdi. Romni va D, Andrad shu xulosaga kelishdi shuni bilish juda foydali-ki, "Formal tahlil yo'li bilan paydo bo'ladigan komponentlar so'zni ma'nosini belgilaydi" va "Mazkur guruh uchun komponent tahlilining bir shakli boshqasiga nisbatan foydaliroq bo'lishi mumkin. Mazkur ishning asosiy xulosasi – odamlar qarindoshlik atmalarni shunday tarzda tadbiiq qilishadi-ki, xuddi har bir termin aniq chegaralangan ma'nolarning yig'indisini o'zida mujassam qiladi".

Aytilgan gaplar asosida komponent tahlil uslubi va ma'nosi haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lish mumkin. Bunday tadqiqotlar semantik aspekti tuzilmasini ta'riflashning bir jihati va faqat antropologik uchun emas, balki lingvistikani o'rganish psixologiyasi uchun ham juda muhim. Mazkur uslubning qo'llanilish doirasi ma'lum darajada chegaralangan. Ko'proq bu uslub diskret jihatdan bir -biridan farqlanuvchi referentlardan iborat sinflarni tahlili uchun to'g'ri keladi. Masalan, inson erkak yoki ayol bo'lishi mumkin, real yoki mifik mavjudod va h.k. Atamalarning har biri aniq, obyektiv jihatdan belgilanadigan referentga ega. Bu uslub boshqa sohalarda ham qo'llanilishi mumkin, jumladan, sotsial munosabatlar. Masalan, bermoq va hadya qilmoq fe'llarini farqi nimada? Inson unga qaraganda pastroq satsial mavqega ega

odamlarga hadya qiladi. Demak, soʻzning qoʻllanilish doirasi ayrim feʼllarning alohida belgisi, komponenti hisoblanadi.

Komponent tahlil uslubi semantik aspektlarning qaysi turini tadqiq qilishda toʻgʻri kelmaydi? Masalan, “kursi” soʻzini olaylik. Bu soʻz chegaralari ancha noaniq boʻlgan sinfga kiradi. Kursini orqa tomoni pasayib, oyoqlari uzaysa u skameykaga aylanadi va h.k. Ammo “amaki” hech qachon “ammaki” aylanmaydi. “Kursi” soʻzining maʼnosi chuqur komponentlar bilan emas, balki har xil parametrlar tutami orqali belgilanadi.

A. Doybold “эго” (soʻzlovchi) va boshqa odamlar oʻrtasidagi “Sotsial masofa” tushuncha asosida mazkur ingliz soʻzlarining sxemasini tuzdi. Ichki doiraga kiruvchilarni bir doʻst deb taʼriflaydilar, tashqi doiradagilarni tanish odamlar ingliz tilining amerikacha varianti va nemis tili uchun sxemalar bir -biriga munosib, faqat ichki doira joylashuvi bilan farqlanadi.

Ingliz tilini amerikacha varianti doʻst, soʻzlovchi, tanish odam.

Ingliz atamalarini ularning nemis ekvivalentlari bilan qiyoslaymiz. Nemis terminlari (freund, bekannter yoki ayol boʻlsa “bekannte”) tarjimasi “doʻst” va “tanish odam” soʻzlariga toʻgʻri keladi, ammo Daybold koʻrsatganicha, qoʻllanilganda ayrim farqlarga ega boʻlardi. Nemis tilida freund soʻzni ingliz tiliga nisbatan juda yaqinroq “doʻstlarcha” qoʻllaniladi, yaʼni amerikaliklar doʻst deb bilgan odamlarining koʻpginasi nemis uchun faqat tanish odam sifatida belgilanadi. Amerikacha friend va nemis freund soʻzlari oʻrtasidagi farqni belgilovchi semantik “komponentni” aniqlash juda qiyin. Bu farq maʼlum bir daraja yoki meʼyor bilan belgilanadi.

Semantik komponentlar yoki semantik aksiomalar tushunchasi tahlil uchun juda foyda keltiradi. Ularning ayrimlari parametr jihatida qoʻllanilishi mumkin. Soʻz haqida semantik axborot fonologiyada differentsial belgilar tizimi kabi mazkur belgini mavjudligi yoki yoʻqligi asosida tashkil topmaydi. Ammo xuddi shu talqin asosida koʻpgina hozirgi semantik nazariyalar tashkil topadi. Komponent tahlil, boshqa koʻpgina uslublar qatorida, semantik tuzilmaning tabiatini tushunishda muhim oʻrin egallashi mumkin.

Shu borada boshqa bir uslub ham, ya'ni so'z assotsiatsiyalari tadqiqotidan paydo bo'lgan ma'lumotlarning psixolingvistik tahlili.

2. So'z assotsiatsiyalari (to'dalari).

Assotsiativ tajriba eksperimental psixologiyasini eski turlaridan biri. Jorj Miller mazkur uslubni paydo bo'lishi tarixini shunday ta'riflaydi:

“Ser Frensis Gal'ton (1879), ingliz olimi va Charliz Darvinning uzoq qarindoshi, birinchi bo'lib assotsiativ eksperiment o'tirishga qaror qildi. U 75 so'zni saralab, har birini alohida kartochkalarda yozib oldi va ularga bir necha kun yondoshmadi. So'ng u kartochkalarni birma bir olib ularga qaradi. U ko'p so'zni to'xtagan vaqtdan o'qilgan so'z unda ikki har xil fikr tug'dirgan vaqtgacha o'tgan davrni hronometr orqali belgiladi. Har bir so'zga paydo bo'lgan fikrlarni u yozib oldi, lekin natijalarni bayon qilishdan bosh tortdi. Gal'ton yozishicha, ular inson fikrini shu daraja aniqlik bilan ta'riflaydilar va fikrlash anatomiyasini yorqin va to'g'ri ochishadi, ammo ularni chop qilib va dunyoga tanitilsa, mazkur holatni saqlash juda qiyin” .

Shu davrlardan mazkur uslub psixolog va psixiatrlar tomonidan inson psixikasini o'rganish, fikrlash qonuniyatlarini belgilash til materialini o'zlashtirishni tadqiq qiluvchi eksperimentning natijalarini bashorat qilish, boshqa maqsadlarda keng qo'llanildi. So'z assotsiatsiyalari tadqiqoti haqida juda ko'p adabiyotlar mavjud, ammo ularning kichik bir qismi bizni qiziqtirayotgan denotativ ma'no muammosi bilan bog'liq.

Bu jihatdan eng qiziqarlisi psixolog Jeyms Diznning “Assotsiativ ma'noning tuzilmasi” nomli tadqiqoti. Bu kitobni o'qishdan burun assotsiativ tajribani spetsifikasini ko'rib chiqamiz.

Assotsiativ eksperiment ko'pincha shunday o'tiriladi: sinov o'tuvchilarga so'zlar ro'yxati topshiriladi va ularga har bir so'zga boshqa so'z bilan javob bering degan ko'rsatma beriladi. Shu orqali biz har bir rag'bat so'zga ta'sir so'zlarning ro'yxatini va ta'sir paydo bo'lishini tezligini olamiz. Kent va Rozonov 1910-yilda o'tkazgan eksperimentda 100 odam qatnashib chair (kursi) so'ziga javob berishdi.

Bir soʻzga keltirilgan jadval roʻyxati necha psixologlarni soʻz assotsiatsiyalariga boʻlgan eʼtibori pasaymayotgani haqida guvohlik beradi.

Mazkur roʻyxat bir necha savollarni tugʻdiradi. Lekin bizlarni bir savol qiziqtiradi: Qanday qilib assotsiyalarni tasnif qilish mumkin? Assotsiatsiyalar tasnifi boʻyicha har xil urinishlar mavjud. Masalan, J. Miller mazkur tasnifni oldga surgan:

Qarama-qarshilik: wet-dry, black-white, man-woman.

Oʻxshashlik: blossom-flower, pain-hurt, swift-fast.

Boʻysundirish: animal-dog, man-father.

Ergashtirish: apple-peach, dog-cat, man-boy.

Umumlashtirish: spinach-vegetable, man-male.

Acconanc: pack-tuck, bread-red.

Qism-birlik: petal-flower, day-week.

Qoʻshimcha: forward-march, black-board.

Egatsentrizm: success-I most, lonesome-never.

Izdagi bir soʻzlar: run-running, deep-depth.

Predikatsiya: dog-bark, room-dark.

Mazkur tasnifda ayrim semantik belgilarni yoki parametrlarni aniqlashga urinish boʻlgan, ammo muvaffaqiyatli chiqmagan. Dizning yozishicha, bunday tasniflar assotsiativ tajribalar natijalaridan kelib chiqmaydi:

“Tasnif tamoyilari qisman psixologik, qisman mantiqiy, qisman lingvistik va assotsiativ jarayonga hech qanday aloqasi yoʻq. Shu borada assotsiatsiyalarni grammatikada, har xil lugʻatalarda, psixodinamik nazariyalarda va fizik dunyo tuzilmalari haqida har xil tushunchalarda namoyon boʻlgan aloqa sxemalarga kiritish harakati koʻzga tashlanadi”.

Dizning oʻzi va psixologlar Jenkins, Kofer va boshqalar assotsiativ soʻzlarning shahobchalari bilan qiziqishib, soʻzdagi ayrim taʼsirlarni koʻrib chiqmadilar. Bu degani, bir-biriga ragʻbat va taʼsir sifatida ishlatiladigan soʻzlar yana bir qator soʻzlarning paydo boʻlishiga sabab boʻladi, ular ham oʻz navbatida ragʻbat va taʼsir boʻlishi mumkin. Shunday qilib, tadqiqotchilarni soʻzlar oʻrtasidagi aloqalar qiziqtiradi.

Diz “assotsiativ ma’no” degan tushunchani kiritadi. Agar ikki soʻz bir xil assotsiativ taʼsir tugʻdirsa, demak, ularning assotsiativ maʼnolari oʻxshash. Haqiqatda soʻzlar faqat qisman toʻgʻri keladigan assotsiyatsiyalar yigʻindisiga ega va ikki soʻzning assotsiativ maʼnolarining yaqinligi soʻzdan paydo boʻlgan assotsiyatsiyalarni qisman toʻgʻri kelishi bilan belgilanadi.

Misol uchun 50 sinov oʻtuvchi moth (kuya) va butterfly (kapalak) soʻzlaridagi assotsiatsiyalarni koʻrib chiqamiz. Ikkinchi jadvalda moth soʻzidan pastdagi sonlar shu soʻzga taʼsir sifatida gap tomonidagilar bir soʻz qancha ishlatilgani berilgan. (yaʼni moth soʻzi bir marta butterfly degan taʼsir chiqardi, bir marta insect (hasharot) va h.k. Shunga oʻxshagan holda butterfly soʻzidan pastgi sonlar ularga taʼsirni belgilaydi. Assotsiatsiyalarni oʻxshash hollarini tezligi oxirgi boʻlakda berilgan.

Jadval moth va butterfly soʻzlariga assotsiatsiyalar mosligi

taʼsir-soʻz	ragʻbat soʻz		assatsiatsiyalar mosligi
	moth	butterfly	
moth	50	7	7
butterfly	1	50	1
insect	1	6	1
wings	2	5	2
fly	10	4	4

Agar bironta soʻzlar bir- birisi bilan qiziqarli aloqalari bogʻliqligini aniqlab, shunday soʻzlarning manbasini tuzsa, oʻxshash assotsiatsiyalarga ega boʻlgan har xil soʻz tizimlarini aniqlasa boʻladi. Buning asnosida asosiy semantik turlarini belgilasa boʻladi. Jumladan, Diz quyidagi 19 soʻzga taʼsir soʻzlarining oʻzaro aloqalarini tadqiq qildi: moth (kuya), insect (hasharot), wing (qanot), bird (qush), fly (pashsha), yellow (sariq), flower (gul), bug (piyoz), cocoon (tilla), color (rang), blue (koʻk), bees (ari), summer (yoz), sunshine (quyosh nuri), garden (bogʻ), sky (osmon), nature (tabiyat), spring (bahor), butterfly (kapalak).

Jiddiy va chuqur tahlil, muhim va oʻzaro aloqalar bogʻliqligidagi soʻzlar bilan belgilandi:

“ Hayvonlarga aloqasi bo‘lgan so‘zlar” (moth, insect, wing, bird, fly, bug, cocoon, bees, butterfly),

“Hayvonlarga aloqasi yo‘q so‘zlar” (yellow, flower, color, blue, summer, sunshine, garden, sky, nature, spring);

Hayvonlarga aloqasi yo‘q bo‘lgan so‘zlarni ikki guruhga bo‘linishi:

summer, sunshine, garden, flower, spring, blue, sky, yellow, color.

Bu sxema juda qiziqarli ravishda shunday printsipal semantik belgiga, ya’ni jonli jonsiz kabi tushunchaga to‘la mos keladi. Diz otlar va sifatlar uchun, mazkur assotsiativ tuzilmalarni qurish maqsadida katta ishlar olib bordi. Jumladan, u ko‘pincha antonomik sifatlar bir-biriga ta’sir sifatida paydo bo‘lishini aniqladi.

Dizning so‘z aloqalarini eng muhimi guruhlarga bo‘lish va qarama-qarshilik degan fikri katta qiziqish uyg‘otadi. Uning yozishicha:

“Assotsiativ distributsial ko‘rsatmalari shu fikrga chorlaydi-ki, muhim, ya’ni, so‘zlar o‘rtasidagi mantiqan va sintaksis aloqalarni tasnif qilishi uchun biz ikkita asosiy operatsiyalardan foydalanamiz: qarama-qarshilik va guruhlarga bo‘lish. Lug‘atni bir qismida joylashgan, til birligini holatini mazkur tilni bu birligini boshqa bir elementi bilan qarama-qarshi qo‘yib yoki uni boshqa bir elementlar bilan guruhga bo‘lgan holda aniqlasa bo‘ladi”.

Qarama-qarshi juftlik yaratadigan va birinchi ta’sir sifatida bir-biriga undaydigan so‘zlar.

Qarama-qarshilik aloqasi har bir tilning xususiyati bo‘lib chiqadi. Bu jihatni psixolingvist Charliz Osgud “Semantik differentsial” uslubini yaratishda qo‘lladi. Bu uslub juda oddiy bo‘lib, unga qalam va qog‘oz bo‘lsa bas. Sinov o‘tuvchiga ma’lum bir tushunchani ayrim antonomik aspektlar orqali belgilash topshiriladi. Mazkur uslub har xil til va madaniyat ma’lumotlari asosida qo‘llanildi va juda qiziqarli natijalarga olib keldi. Osgud aniqlashicha, antonimlar uchta asosiy universal turlarga bo‘linadi: affektiv, yoki konnotativ, ma’nolar: baholovchi (parametrlar: yaxshi-yomon, chiroyli-xunuk, sevinchli-qayg‘uli); kuch bilan bog‘liq (masalan, kuchli-kuchsiz, jasur-qo‘rqoq, qattiyatli-yumshoq) va faollik bilan bog‘liq (masalan, chaqqon-sust, shiddatli-b o‘shashgan, issiq-sovuq).

Guruhlash tushunchasi assotsiativ tadqiqotlarning natijasidir. Bu tushunchaning mohiyati boshqa bir psixologik uslub bilan bog'liq.

3. Semantik generalizatsiya (umumlashtirish).

Semantik generalizatsiya uslubini qo'llash g'oyasi shartli reflekslarni tadqiq qilish natijasida paydo bo'ldi: agar biron bir so'zlar o'ygan semantik harakterdagi assotsiatsiyalar bilan bog'liq bo'lsa, o'yganing bir qismida paydo bo'lgan refleks uning boshqa qismlari orqali ham kelib chiqishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bironta so'zga paydo bo'lgan ta'sir, birinchi so'z bilan semantik aloqalarga ega bo'lgan boshqa so'zlarga ham o'tishi mumkin. Bu uslub o'tgan asrning 20- yillarda Sovet Ittifoqida ishlab chiqilgan va sovet psixolingvistik nazariyasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shartli refleksning umumlashtirish misoli sifatida birinchi navbatta Shvarts tajribalarini ko'rib chiqamiz. Agar ta'sir etuvchi sifatida so'z qo'llanilsa, unga ta'sir ma'no jihatdan boshqa bir so'zlarga ham o'tadi.

Aytilishi jihatdan o'xshash so'zlar esa, faqat balda shartli refleks yaratadi, keyin esa differentsiatsiyaga uchrab refleks kelib chiqmaydi. Jumladan, "doktor" so'zida paydo bo'ladigan ta'sir "врач" so'zini ham yaratadi, ammo aytilishi yaqin bo'lgan, lekin ma'nosi umuman boshqa "диктор" so'zini kelib chiqarmaydi. Shvartsning fikriga qaraganda, doktor va vrach kabi sinonimlarni o'xshash tarzda ta'sir etadilar, chunki, har bir so'zda tovush shakli har xil bo'lsa ham, inson miyasida o'xshash aloqalarni mujassam qiladi.

Luriya va Vinogradova (1971) ning tadqiqoti katta qiziqish uyg'otadi, va bu yerda so'z ma'nolarining semantik sohalarda bog'lanishi darajalari belgilangan. Sinov o'tuvchilarga so'z turkumi berilgan va bironta bir so'zdan keyin elektr tok urushi bo'lgan, va undan keyin keyingi so'zlarga ta'sir o'lchalgan. Shunisi ayon bo'ldiki, sinov o'tuvchilarda tok urushi bilan bog'liq so'zlarga tabiiy himoya ta'siri paydo bo'lgan. Jumladan, agar sinov o'tuvchi skripka so'zida tok urushi olsa, unda скрипач, смычок, струна, (tok) va h.k. so'zlarida ham himoya ta'siri paydo bo'lgan.

Torsiz musiqaviy asboblarni belgilovchi soʻzlar berilganda (masalan, akkordeom va baraban), yoki musiqa bilan bogʻliq (konsert va sonata) boʻlsa, unda yoʻnaltirilgan taʼsir paydo boʻlgan. Bundan tashqari, neytral soʻzlar ham berilgan, ammo ular sinov oʻtuvchida hech qanday taʼsir yaratilmagan.

Bu eksperiment faqat murakkab semantik tuzilmalar mavjudligini koʻrsatmasdan, sinov oʻtuvchilar bu tuzilmalarning borligini anglamaganligini ham namoyon qildi. Ularning tabiiy taʼsiri juda mustahkam boʻlsa ham, eksperimentdan soʻng oʻtirilgan soʻroqda shu ayon boʻld-ki, sinov oʻtuvchilar ularga taqdim etilgan soʻzlarning semantik aloqalarini anglamaganligi namoyon boʻldi.

Bu ayrim misollar semantik generalizatsiya qay jihatda qiziqarli uslub ekanligini isbotlaydi. Lekin aksida bu uslub uncha qoʻllanilmaydi, va shu uslub qoʻllanilishi natijasida paydo boʻlgan maʼlumotlar boshqa uslublar yordamida olingan soʻz aloqalari va maʼno tahlili natijalari bilan juda kam qiyoslanadi. Bu borada hali katta ishlar olib borilishi lozim.

4. Psixolingvistikada gap tushunchasi.

Shunisi ayonki, gapni interpretatsiya (sharhlash, izohlash, tushuntirish)⁴ qilish uchun biz uning tarkibiga kiruvchi soʻzlarning ham maʼnosini bilishimiz lozim. Maʼlum soʻzning maʼnosi butun bir gap mazmunini oʻzgartirishini misolda koʻrib chiqamiz:

I would have taken the plane but: I was too heavy to carry.

(Men samoliotga oʻtirmoqchi edim, ammo juda baland edi)

Grammatikaning semantik komponenti vazifasi ham gapni shunaqa interpretatsiya qilishdir. Shu vazifani bajarish maqsadida semantik komponent gapni sintaktik tuzilmasini inobatga olishi lozim, shu bilan birga, uning tarkibidagi soʻzlarning semantik tuzilmasini ham eʼtibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu tilshunoslikda hali toʻliq oʻrganilmagan. Chunki, semantika va sintaktik masala oʻrtasidagi chegara juda nozik. Masalan, Mazkur gapni koʻrib chiqamiz:

⁴ Кары Ниязова и проф. А. К. Боровкова “Русско –узбекский словарь” (Ташкент 1942).

Abstractness respects Chomsky.

(Abstraktlik Xomskiyni hurmat qiladi)

Bu gap normalarga munosib emas, chunki “hurmat qilmoq” fe’lining subyekti inson bo’lishi lozim, “Abstraktlik” (Mavhumlik) esa – odam emas. Lekin “inson bo’lmoq” xususiyati bu otlarning “hurmat qilmoq” fe’lini subyekti vazifasini bajaradigan doirasini belgilovchi sintaktik holat deb bo’ladimi? Shunday ekan, unda berilgan gap grammatik jihatdan noto’g’ri. Agar “inson bo’lmoq” xususiyatini semantik holat deb ta’riflasak, unda bu gap sintaktik jihatdan grammatik to’g’ri bo’ladi, hatto normaga to’g’ri kelmasa ham. Sintaktik tahlil mukammallik va aniqlikning ma’lum bir darajasiga yetganda, so’zlarning gapda ishlatishni chegaralovchi xususiyatlar ko’proq semantik tus oladi. Buning natijasida “jonlilik”, “inson bo’lmoq”, “baho beruvchi”, “teskari jarayon” kabi xususiyatlar paydo bo’ladi va tilshunoslarning bahslari ular semantik yoki sintaktik tusga egami yoki hech qaysi to’g’ri kelmaydimi degan holatni keltirib chiqaradi. Semantik komponentlar me’yor jihatdan noto’g’ri gaplarning interpretatsiyasida ham ishtirok qiladi. – bunday interpretatsiyaga qobiliyat psixologlarni juda qiziqtiradi, lekin u haqida ma’lumot juda oz. Yuqorida keltirilgan me’yor jihatdan “Abstraktlik Xomskiyni hurmat qiladi” gapini bizning ongimizda tez fursatda umuman ma’nosizligi qayd etilmaydi. Aslida, bu gapni interpretatsiya qilish juda oson, bu maqsadda “abstraktlik” so’ziga “hurmat qilmoq” fe’lidan kelib chiquvchi ayrim xususiyatlarni qo’shsak bo’lgani. Unda “abstraktlik” ma’lum darajada jonli bo’ladi.- o’ziga xos “abstraktlik ruhi” va u bimalol “Xomskiyni hurmat qilishi” mumkin.

Mazmunga zid gaplarni interpretatsiya qilish ertami-kech chuqur o’rganilishi lozim bo’lgan psixolingvistik qobiliyatning yana bir aspektini tashkil etadi. Katu va Fodor tashkil qiluvchi grammatikasini doirasida semantik nazariyani birinchi variantlaridan birini ishlab chiqishdi, ular asosiy e’tiborni til qobiliyatining qo’shimcha aspektlariga qaratishdi. Bu aspektlar sintaktik qobiliyat doirasidan chiqadi, ammo semantik va sintaktik doiralar asosidagi ma’lum bir o’xshashlikni inkor qilib bo’lmaydi. Biz sintaktik ma’nosizlikni anglash qobiliyati singari gapning semantik nosozliklarni ham qayd qilishi qobiliyatiga ega bo’lishimiz lozim. Misol tariqasida

berilgan birinchi gapda semantik ma'nosizlik mavjud, chunki "o'tirmoq" so'zi ko'pgina ma'nolarga ega. Katu va Fodor unga o'xshagan misol keltiradi:

The bill is large.

(Hisob-kitob katta).

Bu gapda birgina chuqur sintaktik tuzilma mavjud, ammo bill so'zi ko'p ma'noli bo'lganligi sababdan gap ham ko'pgina ma'noda bo'lishi mumkin. Ammo bu nosozlik gapni davom qilganda yo'qoladi:

The bill is large but need not be paid.

(Hisob varaqasi katta, ammo u bo'yicha to'lash lozim emas).

Demak, biz gapni bir qismini ma'nosizligini uning boshqa bir qismiga qarab to'g'irlab qo'yish qobiliyatiga egamiz va shu orqali mazkur gapning imkoni bo'lgan ma'nolarini belgilashimiz mumkin. Ma'nosizlikni yo'qotish maqsadida biz gapning ichidagi semantik aloqalarni qo'llashimiz mumkin.

Misol qilib berilgan ikkinchi gap semantik qobiliyatning yana bir komponentini bayon qiladi, ya'ni mazmunga zid gaplarni anglash, ayrim hollarda interpretatsiya qilish imkonini beradi. Semantik qobiliyatning yana bir aspekti mavjud bo'lib bu turli tuzilmaga ega gaplarning ma'nolari o'rtasida aloqalarni belgilashdan iborat.

Avvalambor, semantik nazariyada lug'at (leksikon) bo'lishi lozim. Bu lug'atning kerakli tomoni, ayrim so'zlar ma'lum darajada o'xshash ma'nolarga ega, boshqalari esa- umuman turli ma'nolarda. Grammatikaning sintaktik komponenti bir so'z bilan farqlanadigan gaplar interpretatsiya qilinganda, turli ma'no kashf etishni tushuntira olmaydi. (Masalan, "Meni yo'lbars tishladi" va "Meni pashsha tishladi"). Lekin shu borada bir so'z bilan farqlanadigan gaplarni o'xshash tarzda interpretatsiya qilishlari mumkin. (Masalan, "Meni okulist ko'rib chiqdi" va "Meni ko'z doktori ko'rib chiqdi"). Mazkur lug'at asosiy semantik komponentlariga loyiq tarzda so'zlarning ma'nolarini belgilash lozim. Bundan tashqari, so'zni gapdagi bajaradigan turlicha vazifalardan kelib chiqqan holda ma'nolar bo'linib chiqishi lozim. Masalan, "play" so'zini olsak. U gapda ot, fe'l, sifat tarzida qo'llanilishi mumkin. "Play" so'zi uchraydigan gapni interpretatsiya qilsak, birinchi navbatda sintaktik tahlil qilinadi, u

mazkur gapdagi “play” so‘zining sintaktik roli haqida axborot beradi. (Masalan, u ot, bo‘lishi mumkin-That was a good play). Bu gapning keyingi interpretatsiyasida biz “play” so‘zining ot tarzidagi bir ma‘nosini uchratamiz. Bu yo‘nalishga muvofiq so‘z lug‘atda grammatik jihatdan ta‘riflanib, keyin har bir ma‘nosi belgilanadi. Jumladan, “play” so‘zi ot tarzida teatr bilan bog‘liq ma‘nosi bo‘lishi mumkin, sport bilan ham va h.k. Ma‘noning asosiy komponentlari so‘z ma‘nosini ta‘riflashda majburiy tarzda ma‘lum bir rol o‘ynaydi.

Semantik nazariyada qatnashishi lozim bo‘lgan yana bir komponent – bu qoidalar to‘plami. Ular gapda so‘zlar o‘rtasidagi aloqalarni tushuntirib, har bir so‘zni qaysi ma‘nosi mazkur gapning kontekstiga to‘g‘ri kelishini, so‘z ma‘nolarining qaysi turlari birgalikda ma‘noli, normativ gap tuzishni belgilaydi.

Psixolingvistik qobiliyatning to‘liq modeli ayrim gapning konteksti bilan chegaralanmaydi. Gapni tushunishda kontekstning yana ikki turi rol o‘ynaydi: nutq konteksti (boshqa gaplar) va nolingvistik kontekst (odamlar, predmetlar, voqealar). Ko‘pincha gaplar faqat ma‘lum bir kontekstda to‘liq bir ma‘no kashf etadi.

Demak, gapni tushunish jarayoni, o‘zida semantik komponentni aks qilishi lozim, va bu komponent bizga hali ma‘lum bo‘lmagan bir psixologik jarayonlarda o‘z yechimini topishi kerak.

II bob bo'yicha xulosa.

Aytilgan gaplar asosida komponent tahlil uslubi va ma'nosi haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lish mumkin. Bunday tadqiqotlar semantik aspekti tuzilmasini ta'riflashning bir jihatini va faqat antropologik uchun emas, balki lingvistikani o'rganish psixologiyasi uchun ham juda muhim. Mazkur uslubning qo'llanilish doirasi ma'lum darajada chegaralangan. Ko'proq bu uslub diskret jihatdan bir -biridan farqlanuvchi referentlardan iborat sinflarni tahlili uchun to'g'ri keladi. Masalan, inson erkak yoki ayol bo'lishi mumkin, real yoki mifik mavjudot va h.k. Atamalarning har biri aniq, obyektiv jihatdan belgilanadigan referentga ega. Bu uslub boshqa sohalarda ham qo'llanilishi mumkin, jumladan, sotsial munosabatlar. Masalan, bermiq va hadya qilmoq fe'llarini farqi nimada? Inson unga qaraganda pastroq satsial mavqega ega odamlarga hadya qiladi. Demak, so'zning qo'llanilish doirasi ayrim fe'llarning alohida belgisi, komponenti hisoblanadi. Bu komponent bizga hali ma'lum bo'lmagan bir psixologik jarayonlarda o'z yechimini topishi kerak.

III BOB.

PSIXOLINGVISTIKADA TIL, NUTQ VA TAFAKKUR MUNOSABATI

Ma'lumki, madaniyat, ijtimoiy xulq va tafakkur tushunchalarini tilsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Til, nutq va tafakkur birligi munosabati qadim zamon tilshunoslaridan boshlab bugungi kun olimlarining ham dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

XIX asr boshlarida nutq mustaqil fan darajasiga erishgan tilshunoslikda o'rganila boshlandi. Tilning psixologik tabiatini o'rgangan, uni inson ruhiyatining namoyon bo'lishi, deb baholagan mualliflardan biri V.fon Humboldt edi. U tilni o'lik mahsulot emas, balki doimiy tug'ilish natijasi deb qaraydi.

V.fon Humboldt tadqiqotlari til-nutq tafakkuri muammolari-tilni tushunish, mantiqiy va til kategoriyalarini shakllanishi, material (tovushli) substrakt bilan fikrlash jarayonining munosabati masalalarini o'rganish imkonini beradi. V.fon Humboldtning psixologik tadqiqotlari uning shogirdi tilshunoslikda psixologik yo'nalish asoschisi G.Shteyntal tomonidan rivojlantirildi.⁵

Bu tushunchalarning ijtimoiy muhitdagi munosabatini o'rganar ekanmiz, avvalo, til va tafakkur haqidagi fikrlarni oydinlashtirib olsak. Til ham, tafakkur ham o'z mohiyatiga ko'ra falsafiy, ruhiy va ijtimoiy hodisadir. Shuning uchun ham bu masalaga falsafa, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar turlicha yondashadi. Masalan, Amerika bixevioristik psixologiyasi asoschisi J.Uotsonning fikricha, "fikrlash jarayoni - bu ovozning motor mashqi" (1913), boshqacha qilib aytganda, tafakkur - bu ichki nutqdir. Bu masalaga rus psixologlari o'ziga xos yondashadi. Rus fiziologiyasining asoschisi I.M.Sechenov 1863 yilda quyidagi ilmiy qarashni ishlab chiqdi: kuzatuvlardan ma'lum bo'lishicha, fikrlash jarayonida bola bevosita gapiradi ham. 5 yoshli bolaning fikrlayotganini biz uning so'zlari yoki pichirlashi orqali bilib turamiz, chunki bu vaqtda bolaning og'zi va lablari harakatda bo'ladi. Xuddi shu holat ba'zan katta yoshli odam fikrlayotganida ham kuzatiladi (Sechenov, 1956).

⁵ Xudaybergenova G. «Eksperimental psixologiyasi» bo'yicha o'quv uslubiy majmuasi. Nukus 2012.

Demak, rus psixologlarining fikricha, bolalikda tafakkur va nutq bir biriga chambarchas bog'liq, keyinchalik, inson rivojlana borishi bilan tafakkur ma'lum ma'noda tildan ajrala boradi, mustaqil ko'rinishga ega bo'ladi (u yoki bu darajada ichki nutqiy reaksiyalardan xoli bo'la boradi). Bu masala mashhur psixolog L.S. Vigotskiy ishlarida keng tadqiq etiladi. U o'zining "Tafakkur va nutq" (1934) asarida filogenez jarayonida ham, ontogenez jarayonida ham noverbal tafakkur elementlari mavjudligini qayd etadi (masalan, amaliy masala yechimida "amaliy" tafakkur). Shuningdek, nointellektual nutq belgilari ham (misol uchun, his-hayajonli qiyqiriqlar) mavjud bo'ladi. Olim bu belgilar munosabatini tekshirar ekan, uning maqsadi qachon nutq tafakkurga xizmat qiladi, qachon tafakkur nutqda aks etishini aniqlashdan iborat.

Jenevada J.Piaje va uning hamkasblari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar bixevioristik qarashlarni inkor etadi. Unga ko'ra insonning bilish jarayoni o'z-o'zidan amalga oshadi, buning natijasida nutqiy faoliyat ham shakllanib, tafakkur belgilarini o'zida namoyon qila boradi. Bola intellekti uni o'rab turgan muhit bilan munosabatiga ko'ra shakllanib boradi. Munosabat qaysi til orqali amalga oshirilsa, bola tafakkuri shu tilda o'sadi, lekin til o'z holicha bu o'sishni belgilab berolmaydi.

Bu masalani o'rganar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, biz til va nutq tushunchalarini alohida hodisa sifatida qayd etamiz. Nutq – moddiy, fizik jarayon bo'lib, uning natijasida nutq tovushlari voqe bo'ladi, til esa bu mavhum belgilar va lisoniy tuzilmalar tizimidir. Shuning uchun Uotson til va tafakkur aloqasini emas, balki nutq va tafakkur bog'liqligini o'rganadi. Vigotskiy va Piaje kabi olimlar nutqni insonlarning bilim va axborot almashinuv quroli sifatida til va tafakkur masalalari bilan shug'ullanadilar.

Biz nimadir aytishga taraddudlanganimizda fikrlash jarayonimiz qay holatda namoyon bo'ladi? Bu taraddudning boshqalaridan o'ziga xos tomoni shundaki, bunda tafakkur muayyan holatda, ya'ni uning ma'lum qismlari sensor obraz, so'z yoki belgilardan iborat bo'ladi. Lekin ular mavhum xarakterda.

Bir lahza bu so'z va belgilar namoyon bo'ladi va o'chadi. Ularni nutq orqali ifodalashda ba'zilar aniqlashib, moddiylashadi; ba'zilar tanlov natijasida tushib

qoladi. Buni faqatgina nimadir aytishga tayyorgarlik deb nomlash mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ruhiy hayotimizning ko‘p qismi fikrlar sxemasining lahzalik qoliplarini ishlash bilan o‘tar ekan. Bu jarayon fikrlash deyiladi va u lisoniy shaklga ega bo‘lmaydi. Buni ma’lum ma’noda ichki nutq deyish mumkin. Vigotskiyning fikricha, ”fikir faqatgina so‘z orqali ifodalanib qolmay, balki unda amalga oshadi ham”. U fikrni so‘zga to‘yinib turgan bulutga o‘xshatadi. (“Tafakkur va nutq” 378-bet).

Nemis tabiatshunosi V. fon Gumboltdt til o‘ziga xos reallik bo‘lib, o‘zini o‘zi ishlab chiqaradi, deydi. V. fon Gumboltdtning fikrida ma’lum haqiqat mavjud. Faqat unga qo‘shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, bu til tafakkur orqali reallikka ko‘tariladi; o‘zini o‘zi ishlab chiqishida ham ongning xizmati katta.

Zamonaviy falsafada “Aytmoq – ma’lum ma’noda yaratmoq, tuzmoq” shiori mavjud. Buning ma’nosi nima? E’tibor qarating, bunda tafakkur, til va nutqning har biriga xos va mos mazmun bor. Birinchidan, nimadir aytishga ehtiyoj tug‘ilganida ongimiz bilan tafakkur qilamiz. Ikkinchidan, bu fikrni ma’lum til me’yorlari asosida moddiylashtiramiz, ya’ni grammatik qoliplar asosida gaplar tuzamiz. Uchinchidan bu gaplar har bir insonning nutqi sifatida o‘ziga xos individuallikka ega bo‘ladi. Bu jarayon shunchalik tez yuz beradiki, odatiy holdek ko‘rinadi. Lekin tafakkur, til va nutqning har biri o‘z vazifasini bajarmasa, inson o‘z fikrlarini to‘g‘ri va ravon, bir so‘z bilan aytganda, savodli ifoda eta olmaydi.

F. de Sossyur fikricha, til ijtimoiy hodisa sifatida, o‘z tuzilishi nuqtai nazaridan, inson ongi doirasidagina ko‘rinishi mumkin emas, u hamma vaqt ham anglab yetilavermaydigan hodisadir. Demak, uning ma’lum tuzilishi ongsiz (anglab yetilmagan) sifatda mavjud bo‘ladi. Bunday holatni bevosita ongda ifodalab bo‘lmaydi, u tilning belgilar tizimiga xos bo‘lib, bevosita ma’nosini, ahamiyatini ifodalovchi tuzilishga tegishli bo‘ladi.

Tilsiz hech qanday madaniyat mavjud bo‘lmas ekan, uni tuzilish jihatidan tahlil qilish xalqning turli davrdagi madaniyatini o‘rganish imkoniyatini beradi. Ong madaniyatning til orqali ifoda etilgan dasturiy ifodasi, uning tasarrufidagi sohadir.

Shunday ekan, inson ma'lum tilni turli qatlamlar ifodalagan madaniyat orqali o'zaro muloqotda, erkinlik faoliyatida o'zlashtira oladi.

Inson rivojining mazkur muammolarini tahliliga o'tishdan oldin aniqlashimiz lozimki, ma'lum bir intellektual jarayonlar, yuqori tartibdagi o'zlashtirish jarayonlar til qatnashmasa ham bo'lib o'tishlari mumkin.

Bolalarni erkin fikrlashga o'rgatish ta'limning eng ustuvor yo'nalishi hisoblangan bugungi kunda ona tili o'qituvchilariga katta ma'suliyat yuklanadi. Muhtaram yurtboshimiz mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratarkanlar, yoshlarni erkin fikrlashga o'rgatishni ta'lim tizimi oldiga muhim vazifa qilib qo'ydilar. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrarligini, mustaqil fikrlash ham katta boylik ekanini ta'kidladilar⁶.

Avvalambor, biz til va nutq o'rtasidagi farqni esdan chiqarmasligimiz lozim. Nutq-bu fizik jarayon, uning natijasida nutq tovushlari paydo bo'ladi, til esa-bu ma'no va til tuzilmalarining abstrakt tizimi. Shu sababdan Uotson til va tafakkur aloqalarini umuman ko'rib chiqmagan, u ko'proq til va tafakkurni birlashtirgan. Nyugomskiy va Piaje kabi psixologlar tafakkur va nutqni nutq qay darajada odamlar bilim berishda qatnashishidan kelib chiqqan holda ko'rib chiqqanlar aniqrog'i, ular til va tafakkur o'rtasidagi aloqalarni, ichki til va kognitiv tuzilmalarning o'zaro munosabatlarini ko'rib chiqqanlar. Ular uchun tilni ichki qo'llanishi hamma vaqt ham tovush apparatining artikulator harakatlarida namoyon bo'lmaydi.

Uotsonning taxminicha ko'pgina qarshi fikrlar bildirilgan. Uotson taxminining eng nozik joyi bu- inson o'zining nutq muskulaturasini boshqara olmasa, fikrlash qobiliyatini ham yo'qotadi, degan ta'rifi.

Bunga qarshi Kofer shuni bayon qiladi: "Smit va uning sheriklari (1947) kurare zaxarial depressiv va anespezik xususiyatlarini o'rganishdi. Kurarening turlaridan biri cd- tubonurarin Smitning venasiga qo'yilgan edi. Skelet muskullari to'la paralich bo'lidi, kislorod va sun'iy ravishda dam berish lozim bo'ldi. Albatta, bir necha vaqt

⁶ Nurmonov Abdulhamid. Tanlangan asarlar III jildlik Toshkent "Akademnashr" 2012

davomida sinovdan o'tuvchi hech qanday harakatli yoki tovushli ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lmadi. Ziarning ta'siri qochganidan so'ng qilingan hisobotda Smit shuni ta'rifladiki, uning boshi tiniq bo'lgan va bo'lib turgan narsalarni to'liq anglagan; parami davrida unga aytilgan va unga nisbatan qilingan narsalarni u ajoyib tarzda bayon qildi. Ehtimol, kommunikatsiyani ma'lum bir vositasini topsa, masalan, katta barmoqni harakatga solish, u nutq yo'qotilgandan keyin ham oddiy vazifalarga qodir edi".

Demak, nutq va tafakkur ahamiyati haqidagi fikrdan vos kechsa bo'ladi. Lekin ichki nutqsiz, ya'ni aniq yoki yashirin shaklda namoyon bo'lmaydigan, ma'lum bir ichki til vositasiz, bo'ladimi? Bir qator fikrlash jarayonlari mavjud, ularni tildan burun yoki tilga zid hisoblasa bo'ladi. O'z fikrini ifodalash uchun kerak so'zni yoki to'g'ri keladigan uslubni topish jarayoni hammaga tanish vaziyat. Bu holatni psixolog U. Djems o'zining mashhur "Psixologiyaning qisqa kursi" kitobida shunday ta'riflagan: "Jumladan biz esdan chiqqan ismni yodga solmoqchimiz. Bizning ongimizni holati juda o'zgacha. Unda o'ziga xos chuqurlik mavjud, ammo bu chuqurlik emas. Bu bo'shliq juda faol. Unda axtarayotgan so'zni ma'lum bir ruhi mavjud, u bizlarni ma'lum yo'nalishda harakat qilishga chorlaydi, bizlarda maqsadga yaqin yoki uzoqlashganimiz haqida hissiyot tug'diradi. Agar boshimizga noto'g'ri so'z kelsa, bu noyob bo'shliq ishlab ketadi, va uni rad etadi. Bu so'z unga to'g'ri kelmaydi. Har xil so'zlar uchun bu bo'shliq turlicha ayon bo'ladi, ammo u mazmunga ega emas va shu sababdan bo'shliq sifatida belgilandi.

Men Speldinning ismini eslamogchi bo'lsam, Boulsni ismini eslashga harakat qilganimdan men anglashimcha maqsaddan uzoqroq bo'laman. Zaruratni ko'pgina anglashlari mavjud, ularning birisiga ham nos berib bo'lmaydi, lekin ular bir-biriga o'xshamaydi. Biz axtarayotgan so'zni ritmi tovushlarda ifodalanmay mavjud bo'lishi mumkin, yoki bu birinchi unli yoki undoshning aniq shakllarga ega bo'lmay bularni o'ziga chorlaydigan hissiyot bo'lishi mumkin.

Hammamizga esdan chiqqan she'rni ritmining hissiyoti tanish, u bizning ongimizda ifodalanib, bizni so'z orqali aks qilishga chorlaydi.

Bizning aytmasimizdan burun bir narsani aytish niyatimiz qaysi fikrlash harakatini o'zida aks ettirishi haqida o'quvchi o'ylab ko'rganmi? Bu boshqa niyatlardan farq qiluvchi juda ma'lum niyat, ong holatini ma'lum belgisi; ammo uning qaysi qismi konkret sensor timsol, so'z yoki predmetlardan iborat? To'g'rirog'i, ular yo'q! Bir laxzada – biz ongimizda so'zlar va predmetlar paydo bo'ladi. Ammo bizning niyatimiz bilan bog'liq so'zlar paydo bo'lib boshlaganda, u to'g'ri keladiganlarni ma'qullaydi va qabul qiladi, to'g'ri kelmaydiganlarni esa rad qiladi. Bu holatning yagona nomi bu – u yoki bu aytish niyati. Ehtimol, bizning psixik hayotimizni uchdan bir qismi ma'lum bir shaklda ifodalanmasdan burun tafakkur sxemalarining shunaqa “Fursatli dastlabki tushunchalardan iborat” .

Bu niyatlar va hissiyotlar qaysi shaklda mavjud? Bu shubxasiz fikrlar, ammo ular til shakliga ega emas. Fikr ichki nutni elementi bo'lmasa biz kerak so'zni axtarib o'tirmas edik. Bu muammo Visgomskiyda aniq ifodalangan: “ Fikrni oqimi va harakati nutq bayonoti bilan chambarchas bog'liq emas. Fikr va nutq birliklari bir birlariga to'g'ri kelmaydi. Ikkala jarayon ham birlik namoyon qiladi, aynilik emas. Fikr faoliyati noto'g'ri yakunlansa, Dostovskiy aytganidek, fikr so'zga borib yetmadi va shunga o'xshash vaziyatlar buni isbotlaydi... fikr o'ziga xos qurilma va oqimga ega, uning nutq qurilishi va oqimga o'tishi katta qiyinchiliklar orqali o'tadi”.

Masalaga ravshanlik kiritib Niyugomskiy: “Fikr so'zda faqat ifodalanmaydi, u unda takomillashadi”, degan, Visgomiskiy uchun ichki nutq –bu Uotson hisoblagandek faqat gaplarni tovushsiz aytililshi emas, balki fikr va tovushli nutq o'rtasida yotgan nutqni alohida bir shakli Niyugomskiy ta'rifi bo'yicha:

“Fikr nutq kabi alohida so'zlardan iborat emas. Agar men bugun ko'rgan ko'k kiyimda bola ko'chada oyoq yalang yugurgani haqida fikr bildirmoqchi bo'lsam, men alohida bolani, alohida kiyishni, alohida uni ko'pligini, alohida u kovushsizligini, alohida u yugurganini ko'rmayman. Bu hammasini men fikr birligida ko'raman, lekin fikrda men ularni alohida so'zlarga bo'laman. So'zlovchi ko'pincha bir necha daqiqa ichida bir fikrni ta'riflaydi. Bu fikr uning miyasida birlikda joylashadi, ammo uning nutqi rivojlanishi kabi alohida birliklarda qaror topmaydi. Fikrda simultant (bir

vaqtda) tarzda mavjud bo'lgan, nutqda suntsessiv (bo'linish) tarzda bayon bo'ladi. Fikrni so'z yomg'iri bilan qo'yiladigan bulut bilan qiyoslasa bo'ladi".

Fikr ko'pgina hollarda so'z ifodasidan erkin ekanligi haqida yana bir isbotni buyuk olim, matematik va rassomlarning o'z ijodiy tafakkuri haqidagi sharhlarda topsa bo'ladi, B. Pulinning "Ijod jarayoni" tomidagi kitobida g'oyalar yoki muammolarning ma'lum bir ilk "inkubatsion" davri mavjudligi haqida ko'p ma'lumotlar berilgan, undan keyin kutilmagan bir qaror keladi, so'ng esa ijodkor katta qiyinchilikga duchor bo'ladi- o'z tafakkurining natijalarini so'z shakliga o'tirishi. Bu borada Albert Eynshteyn introspektiv kuzatishlari diqqatga sazovor: "Mening fikrimcha, tilning so'zlari ularning yozilishi yoki aytilishi shaklida mening tafakkurim mexanizmida hech qanday rol o'ynamaydi. Fikr elementlari sifatida qo'llaniladigan psixik asoslar ma'lum bir belgi yoki u va bu darajada aniq timsollar bo'lib, shartli ravishda paydo bo'lishlari yoki o'zgartirishlari mumkin.

Albatta, bu elementlar va ularga mos bo'lgan mantiqiy tushunchalar o'rtasida ma'lum aloqa mavjud. Shunisi ham ayonki, tushunchalarni mantiqan aloqasiga kelish istagi yuqorda keltirilgan elementlar bilan bu ancha noaniq bo'lgan o'yinni emotsional asosi bo'lishi mumkin. Ammo psixologik nuqtai nazaridan bu kombinator o'yin samarali fikrlashda muhim o'rin egallaydi-boshqa odamlar olib bera olinadigan so'zlar yoki boshqa bir belgilar orqali ifodalangan mantiqan konstruktsiya bilan ma'lum bir aloqa o'rnatishdan iborat.

Yuqorida aytilgan elementlar vizual, ayrimlari esa harakatli shaklda mavjud. Konventsion (mos, to'g'ri keladigan) so'zlar yoki boshqa belgilar ikkinchi bosqichga izlanadi, bu men aytgan assotsiativ o'yin mustahkam harakterga ega bo'lib, barcha istak bo'yicha paydo bo'lishga imkon yaratilgandan so'ng izlanadi. So'zlar paydo bo'ladigan bu bosqichda, ular, har holda menda, tovushli shaklda paydo bo'lishadi, ammo bu, men aytganimdek, faqat ikkinchi bosqichda bo'lib o'tadi".

Ko'rinadiki, tafakkur, til va nutq omillari ijtimoiy hayotda o'ziga xos o'ringa ega. Ularning qay biri asosiy vazifani bajarishi muhim emas, har uchala omilning o'zaro bog'liqligi va insonning oliy mavjudot ekanligini baravar ko'rsata olishi muhimroq.

1. Psixolingvistikada til va xotira.

Eksperimental psixologiya XIX asrning o'rtalarida keng rivojlangan fiziologik laboratoriyalar negizida vujudga kela boshlagan. O'sha davrlarda bu laboratoriyalarda-sezgi, idrok, reaksiya vaqti kabi eng oddiy psixik funktsiyalar o'rganilar edi. Bunday tadqiqotlar falsafa va fiziologiyadan farq qiluvchi eksperimental psixologiyaning fan sifatida vujudga kelishi uchun imkoniyat yaratdi.⁷

Eksperimental psixologiyasining an'anaviy uslublardan biri- vaqti keyinga surilgan ta'sir bilan eksperiment. Masalan, sinov o'tuvchi tajriba o'tirayotgan ma'lum bir mukofotini - ko'pincha ovqat-yashirayotganini ko'radi, bundan keyin shu mukofotga erishish uchun ma'lum bir vaqt o'tishi lozim. Keyinchalik vazifa omadli tarzda bajariladi, turli parametrlar bo'yicha farqlanishi mumkin. Ayrim hayvonlar uchun to'xtalishni maksimal darajasi - bor yo'g'i bir necha sekund. Odam uchun esa to'xtalish imkoni uzoq bo'lishi mumkin. (agar ham yoki yozuvni boshqa turlari qo'llanilsa to'xtamay yashovchi insonning xotirasini uzunligini ortda qoldirishi mumkin, masalan, xazina biron bir eski karta yoki boshqa qayd qilingan narsali orqali qidirilganda).

Shu ayon bo'ldiki, tajriba qo'llangan turli alternitivalarni so'zli ifodalashga o'rgatilgan bolalar to'xtatilgandan so'ng ham so'z ta'rifini qaytarib bilganlar va shu tariqa uzoq davr mobaynida va vaziyatni turli darajada o'zgarganda ham ta'sirlarning ma'lum qismini saqlab kelganlar. Demak, bola so'zli vosita yordamida vaqtinchalik o'zligidan yo'l topa oladi. AQSH va sovet Ittifoqida shunga o'xshagan tadqiqotlar ko'plab amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarning xulosasi shundaki, inson ma'lum bir so'zni qoidani ifodalashga qodir, uni u psixologik eksperimentlarning ma'lum turlarida o'zining xulqini boshqarish uchun qo'llaydi va ehtimol, shunga mos real hayotiy vaziyatlarda. Inson tomonidan vazifa yechadigan eksperimentlar shunga o'xshagan hayvonlar bilan tajribalardan juda farq qiladi, negaki birinchi holatda vazifani yechish vositasi sifatida og'zaki fikrlash yotadi. Qisman buning sababi shundaki, yechish og'zaki shaklda xotirada osongina saqlanishi mumkin. Ammo og'zaki

⁷ Xudayberganova G. "Eksperimental psixologiya" Nukus 2012.

reprezentatsiyani (mavjudlik) xotiradagi oʻrni haqida yana bir muhim maʼlumot mavjud. Bu degani, biz yodda saqlaganimiz koʻpginasini “buzilishi”ni sababi uni verbal (ogʻzaki) shaklda saqlanishi, shu sababdan soʻz “xulosasida” aniq aks qila olmaydi. Verbal xotira-bu oʻziga xos bir jarayon.

Bu ragʻbatni vizual aspektlarini yodlash masalan, shakli yoki rangi tadqiqotlari boʻyicha eksperimentlarda koʻzga tashlanadi. Shunga oʻxshagan tajribalar shuni koʻrsatdiki, xotiradagi vizual obrazlar oʻzining soʻzli taʼrifiga mos kelishi uchun buzilishi ham mumkin. Bu sohada klassik hisoblangan tadqiqot 1932-yilda Karmaykl, Kogan va Volter tomonidan amalga oshirildi.

Bu eksperimentlarda sinov oʻtuvchilarga 12 rasmdan iborat bir dasta taqdim etildi.

Ularning har biri turlicha ifidalanishi mumkin edi; masalan, 0-0- koʻzoynak yoki gaytel sifatida qabul qilinishi mumkin edi. Sinov oʻtuvchilarga boshda ularga 12 rasm koʻrsatilib, keyin ular imkon boricha aniq qilib ifodalashlari lozimligi aytilgan. Koʻrsatilgan har bir rasimga nom berilgan, masalan, yuqorida berilgan rasm bir holatlarda “koʻzoynak”, boshqalarda esa- “gantel” deb taʼriflangan, natijada sinov oʻtuvchilarda rasmlarning ular soʻzli taʼrifiga mos holda ifodalash hollari kuzatilgan. Jumladan, rasm sinov oʻtuvchilarning birinchi guruhi 0-0 tarzda, ikkinchi guruh esa – 0-0 tarzda ifodalangan. Koʻrinadiki, bunga oʻxshagan vazifani bajarganda, sinov oʻtuvchilarga 12 tasvirni xotirada saqlash, 12 soʻzli taʼrifni yodga olib, shu taʼrif orqali ularni obrazlarini chiqarish osonroq kechadi.

Boʻlib oʻtgan real voqealarni yodda qoldirish ham, albatta shartli belgilarni soʻzli shakl bilan bogʻliq oʻzgarishlarga uchraydi. Bu holat ayniqsa ovoza gaplar misolida aniq namoyon boʻladi, bu yerda vaqt oʻtishi bilan stereotiplar taʼsirida voqealarni soʻzli shaklda yodda qoldirish ham oʻzgaradi.

Har kimning oʻziga xos xotira xususiyatlari mavjud. Xotiradagi bu farq uning kuchida ifodalanadi. Birovda xotira kuchli boʻlsa, boshqa birovda kuchsizdir.

Xotiraning kuchli yoki kuchsiz boʻlishini biz esda qoldirish va unutishning tezlik darajasiga qarab belgilaymiz. Tez esga olib, juda sekin unutish kuchli xotiraning

belgisi bo'lsa, sekin esda olib qolib, tez unutish kuchsiz xotira belgisidir. Shunga qarab kishilardagi xotirani to'rt tipga bo'lamiz:

Esda qoldirish		Unutish
Tez		Sekin
Sekin		Sekin
Tez		Tez
Sekin		Tez

Xotirani yana ko'rish, eshitish, harakat degan tiplarga ham ajratish mumkin. Lekin sof xotira kam uchrab, Ko'proq aralash xotira (ko'rish-harakat, ko'rish-eshitish, harakat-eshitish kabi) xillari uchraydi.⁸

Xotirada saqlanayotgan voqea va hodisalar bilan qanaqa o'zgarishlar ro'y beradi? Birinchidan, tenglashtirish (leveling); ko'pgina hodisalar xotiradan chiqib ketadi, voqea qisqacha va sxematik tus oladi. Shu vaqtda aniqlashtirish (Sharpeneng) bo'lib o'tadi: ayrim detallar alohida ahamiyatga ega bo'lib, hamisha qaytarilib boradi. Va, oxiri, ma'lum bir sxemaga mos holda assimilyatsiya qilinadi. Ma'lum darajada biz voqealarni o'zimizga kerakli tarzda yodda qoldiramiz, biz xotirada qoldirgan narsalar ko'pincha bizning istaklarimiz yoki noto'g'ri tushunchalarimizga xos holda o'zgaradi va shu tariqa bizlar uchun to'g'ri yoki mos bo'lgan holda tus oladi.

Yod olinadiganni sxematizatsiya holatini J. Miller o'zining xotira muammosiga bag'ishlangan mashhur "Sehrli (magik) raqam yetti plyus yoki minus ikki" maqolasida perekodiravanie (yangidan shartli belgilash) deb nom bergan. Bu maqolasida Miller shunday xulosaga keladiki, inson o'zining bevosita xotirada axborotning 7+2 dan ko'p bo'lgan "quyuminni" saqlashi mumkin. Jumladan, yettita tasodifiy so'zdan iborat bo'lgan ro'yxatda yetti tasodifiy harfni osonroq yodda qoldirsa bo'ladi, ammo yetti so'zda yetti harfdan iborat ro'yxatga qaraganda ko'proq harflar mavjud. Xotirada "quyumini" uslublaridan biri-bu uzun taassurotni kichik ta'rif

⁸ "Pedagogika va psixologiya" o'quv-uslubiy majmua 2010.

shaklda perekodirovanie qilish. Ehtimol, bir soʻzga ham, keyinchalik xotirada saqlanayotgan qisqacha ogʻzaki taʼrif orqali boshqa detallar ham tiklanishi mumkin.

Xotiradagi bunday sxematizatsiya nimaga kerak? Agar siz kecha boʻlib oʻtgan narsani eslamogʻchi boʻlsangiz va sizning xotirangizda shunday sxematizatsiya boʻlmasa, siz yashab oʻtgan tezlikda xotirangizda yangidan tiklash kerak boʻlar edi. Koʻrinadiki, bunday holda siz hech narsaga erisha olmaysiz. Kechagi kunni eslash uchun siz yana bir kunni yoʻqotasiz. Bundan ayonki, biz yodga oladigan narsalarni oʻzimizga kerak xulosaga yetguncha qisqartirishimiz lozim. Bunga oʻxshagan reduktsiya qay tarzda kechishi bizga hali noʻmalum. Nevrologiya nuqtai nazaridan qiziqarli qaydlar Penfield va Roberts ishlarida mavjud.

2. Tafakkur va uning shakllari.

Biz bu oʻrinda, avvalo, oʻquvchiga allaqachon maʼlum boʻlgan Vigotskiyning ontogeneza maʼnoning struktur evolutsiyasining tadrijiy pogʻonasi atroflicha tadqiq qilingan, xohlagan tilning lugʻat tarkibining psixolingvistik bir xil emasligi koʻrsatilgan va nutq faoliyatining kompleks psixolingvistik tadqiqi nuqtayi nazaridan muhim boʻlgan soʻz semantikasining ayrim xususiyatlari ochib berilgan. Mana shu nuqtayi nazardan, L.S.Vigotskiyning “Tafakkur va nutq” kitobini eslatishning oʻzi kifoyadir. Mana shu nuqtayi nazardan, A.N.Leontyevning “Psixikaning rivojlanish muammolari” kitobi, shuningdek, yuqoridagi iqtiboslar muhimdir: unda, jumladan, “maʼno” tushunchasiga “fikir” tushunchasi kiritiladi, korrelyativ detallashtiriladi. Ushbu farqlarning qisqacha mohiyatini bayon etishga urinishni bizning “Nutq faoliyatida soʻz” nomli kitobimizning 3-bobidan koʻrishingiz mumkin.

Afsuski, semantikaning umumiy masalalari boʻyicha jiddiy ishlar (psixolingvistik aspektda) juda kam. Shunday boʻlsa-da, bularning barchasi L.S.Vigotskiy gʻoyalariga oʻxshashi tasodifiy emas. A.A.Brudniyning (shuningdek, uning boshqa ishlari ham) avval taʼkidlangan maqolasining uncha katta boʻlmagan, ammo maʼno komponentlari sistemasi tavsiya qilingan G.P.Shedrovitskiyning maqolachasi, shuningdek, N.G.Morozovanning tilning odatdagi tashuvchisi va kar-

soqov tasavvuridagi ma'noning psixolingvistik strukturasidagi farqlarga bag'ishlangan maqolasini tilga olamiz.

Ishlarning uncha katta bo'lmagan guruhi atash jarayonini eksperimental o'rganishga bag'ishlangan. Bular D.N.Uznadze maktabiga tutashadigan mualliflarning ishlaridir.

Inson faoliyati, hayvonlar xulqidan farqli o'laroq, mehnat quroli tizimi va "psixologik qurollar" tizimini ijtimoiy ma'nosiga ega bo'lgan va ijtimoiy ishlab chiqilgan vosita orqali bevosita ishlab chiqilgan muhitga asoslangan holda amalga oshadi. Mehnat quroliga keladigan bo'lsak, uning inson faoliyatidagi roli, avvalo, Marks, so'ngra, G.V.Plexanov tomonidan yetarli darajada ko'rsatilgan edi. "Mehnat qurolida inson, uning anatomik tuzilishini o'zgartiradigan yangi organlardek egallaydi. Shu vaqtdan boshlab, ularning qo'llanishigacha qanday ko'tarilishi(e'tiborni oshirishi)ga u o'zining rivoji tarixiga mutlaqo yangi ko'rinish beradi: avvalo, u, boshqa hayvonlardagidek, uning tabiiy organlari ko'rinishi o'zgarishiga borib taqaladi; endi u, avvalo, uning sun'iy organlari takomillashishuvi tarixiga aylanadi.

Ushbu "sun'iy organlar" qanday lozim bo'lsa, shunday murakkablik darajasiga yetishi mumkin, hozirgacha bo'lgan elektron hisoblash mashinalari ham bunga taalluqli. Mohiyatan, inson tomonidan yaratilgan texnik vositalarning barchasi uning mehnat faoliyatiga vosita bo'lib xizmat qiladi; ammo bunday faoliyatning, hatto juda oddiy akti ham, aytaylik, o'tin yorish, birinchidan, jamiyat tomonidan yaratilgan mehnat quroli (bolta)ni talab etadi; ikkinchidan, jamiyatning o'sha qurolga muvofiq keladigan mehnat harakatlari (indivud tomonidan egallangan malakalari ko'rinishida) kerak bo'ladi.

Mehnat qurollariga ma'lum darajada o'xshashlikni "psixologik qurol" namoyon qiladi (L.S.Vigotskiy termini).

"Tabiatshunoslik kabi filosofiya ham, - deb yozgan edi o'z davrida F.Engels, - shu paytgacha inson faoliyatining, uning tafakkuriga ta'siri tadqiqiga e'tiborsizlik qildi. Bir tomondan, ular faqat tabiatni, ikkinchi tomondan, faqat fikrni biladilar. Ammo...inson aqli tabiatni u qanday o'zgartirishiga qarab rivojlangan. Tabiiyki, ammo hayvonlar xulqi asosida yotgan shartsiz va hatto shartli tipdagi psixofiziologik

mexanizmlar inson tafakkuri, insonning ishlab chiqarishdagi faoliyati rivoji sur'atlariga muvofiqlashuvi mumkin bo'lgan sur'atlar evolutsiyasi sur'atlarini yetarli darajada ta'minlashga qodir emas. Bundan tashqari, ushbu mexanizmlar o'z asosida insoniyat jamiyati ichida odamlarning o'ziga xos aloqalarini aks ettirish uchun moslangan emas. Shuning uchun biz insonda psixologik faoliyatning mutlaqo yangi tipini, belgilarni qo'llashga tayangan intellektual xulqning yangi tipini topamiz. Agar hayvonda muhit ta'siri natijasi sifatida, tabiiy ravishda, shartli refleks aloqalari vujudga kelsa, insonda esa "ijtimoiy hayot individ xulqini ijtimoiy talablarga bo'ysundirish zaruratini tug'diradi, shuning bilan birgalikda, murakkab signallashgan tizimlarni—muayyan inson miyasiga shartli aloqalarni xosil qiladigan va yo'naltiradigan aloqalar vositasini vujudga keltiradi... Psixologik munosabatlarning ushbu aloqalari, mohiyatan, o'z tabiati va o'zining belgilar mohiyati funksiyasi yoki xulqqa ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lib, belgilangan sun'iy yaratilgan stimullardir (RVPF,113). Vositadan (quoldan) farqli o'laroq, ichkariga yo'naltirilgan belgi psixologik operatsiya ob-yektida hech narsani o'zgartirmaydi...; "belgi ichkariga yo'naltirilgan (RVPF, 125). Inson psixikasi o'ziga xos fiziologik shart (asos) va belgilar, insondan tashqari, ijtimoiy vositalar birligi sifatida shakllanadi. Faqat mana shu vositalarni o'zlashtira borib, ularni egallab, inson o'z-o'zidan inson bo'ladi; faqat insoniyat faoliyatining bir qismi, psixologik subyekt inson quroli sifatida ushbu vositalar, avvalo, til o'zining mohiyatini namoyon qiladi. Tilsiz inson bo'lmaydi, ammo insonsiz til ham bo'lmaydi. Nec manus, nisi intellectus, sibi permissus, multum valent: instrumentis et auxiliibus res perficitur, - Vigotskiy Bekondan shunday iqtibos keltiradi: o'zida namoyon qilgan qo'l ham, intellekt ham, ko'p narsaga arzimaydi: ish qurol va vosita orqali amalga oshiriladi".

Yana bir bor takrorlaymiz: "psixologik qurol", jumladan, til ham, nafaqat jamiyatning a'zolariga ta'sir ko'rsatish, balki ularning har birida psixikani shakllantirish vositasi hamdir. Inson ongining mavjudligi faktining o'zi inson psixologik faoliyatining bevosita ifodalangan xarakterining natijasidir. "Ong, o'ziga xos insoniy aks ettirish vositasi sifatida uning o'zidagi shartlar va amaliy faoliyatning tashqi murakkab ijtimoiy shakli vujudga keltiradi... So'z...tabiat bilan kurashish,

ijtimoiy amaliyot jarayonida vujudga keladi, demak, insonning individual ongiga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv borliq fakti hisoblanadi”(IPI, 9).

Ushbu nuqtayi nazar va “klassik”, “ortodoksal”(izchil) sotsiologizm (ijtimoiy hodisalarni o‘rganish va baholashga sotsiologiya nuqtayi nazaridan yondashish) orasidagi farqni oson ko‘rish mumkin. Vigotskiy qarashlari va turli shakldagi ortodoksal bixeviorizm tipidagi soxta materialistik konsepsiyalar orasida, umuman, juda ko‘p kelishmovchiliklar yotibdi.

Modomiki, Vigotskiy bo‘yicha, psixologik qurol sifatida, belgilar jihatidan tashqi psixologik kelib chiqishga ega, sababi “yangi, inson uchun psixologik jarayonlarning o‘ziga xos strukturasi, avvalambor, uning tashqi faoliyatida yuzaga keladi va natijada “ichkariga o‘tishi”, uning ichki jarayonlari strukturasi bo‘lishi mumkin”(IPI,9). Bundan ikkita muhim g‘oya kelib chiqadi. Birinchidan, ongni tizimli qurish g‘oyasi: biz u yoki bu psixik jarayon haqida faqat bolaning psixik rivojida yig‘ilgan psixik funksiyalar tizimi; jarayonlar tizimi tahlili sharoitida aytishimiz mumkin. Unga tug‘ma “berilmagan” va bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishida oddiygina “qo‘shilgan” emas. Ikkinchidan, A.Vallonning kitobi so‘z boshisida yaxshi ifodalangan “interiozatsiyalash”, “ichkariga kirish”(o‘xshash g‘oyalarga kelgan): “harakatdan - fikrga”g‘oyasidir. Ongning shakllanishi (axir u til par excellence ongi) tash-qi harakatni tadrijiy “quyulishi”(ivishi)ni nazarda tutadi, uni nutqiy, so‘ngra xususiy fikrlashga aylantiradi. Ichki nutq ana shunday interiorizatsiyalashgan nutq faoliyati hisoblanadi.

3.L.Leva-Bryuning tafakkurning turi haqidagi konsepsiyasining A.S.Vigotskiy va A.Vallon tomonidan tanqidi. Vigotskiyning qarashlari tavsifini tugatish uchun, yana unga qarama-qarshi “element”ning tahlil “birligi” tushunchasi haqida eslash kerak bo‘ladi. Vigotskiy kitoblarining ko‘pgina joylarida, alohida sabot bilan ularning keyingisi - “Tafakkur va nutq”da–tafakkur va nutq orasidagi parallelizmning yo‘qligini ta’kidlaydi. “Fikr ifodalanmaydi, balki so‘zda namoyon bo‘ladi” (IPI,332). “Biz tomondan izlanayotgan so‘z bilan fikr orasidagi ichki munosabat boshlang‘ich, oldingi berilgan o‘lchamdir... Ammo, shuning bilan birgalikda, tafakkur va nutqni munosabatda bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikki jarayon, bir-biriga parallel harakat

qiladigan va oqadigan yoki o'z yo'lining ayrim nuqtalarida kesishadigan va bir-biri bilan mexanik munosabatga kirishadigan ikkita mustaqil kuch sifatida namoyon bo'ladi. Fikr va so'z orasidagi dastlabki aloqaning yo'qligi hech qanday darajada bu aloqaning faqat bizning ongimiz faoliyatining mohiyatiga ko'ra, ikki xil turining tashqi aloqasi sifatida paydo bo'lishi mumkin. Aksincha,...tafakkur va nutq katta ko'pchiligining asosiy metodologik nuqsoni - bu ishlarning samarasizligi bilan bog'liq nuqson bo'lib, aynan fikr va so'z orasidagi ikki jarayonni ham ikki bog'liq bo'lmagan, mustaqil va alohida, tashqi birlashtirishdan, unga xos bo'lgan barcha xususiyatlari bilan nutqiy fikrlash vujudga keladigan tashqi alohida element sifatida fikr va so'z orasidagi munosabatlarni shunday holatda qaraydi"(IPI, 320-321). "So'zning ma'nosi... so'zning o'z ma'nosida fikrlash aktini namoyon etadi"(IPI,49).

Vigotskiy uni xosil qiluvchi elementlarga ajratib va muammoni ushbu elementlarning munosabati muammosi sifatida qo'yib, "nutqiy fikrlash" butunligini tahlil qilish bo'yicha urinishlarga keskin qarshi chiqadi. Bir-biriga munosabatda begona bo'lgan uning elementlarini xosil qiladigan nutqiy fikrlashga ajratib, ushbu tadqiqotchilar, so'ngra tafakkurning haqiqiy xususiyatini nutqqa bog'liq bo'lmagan holatda va nutqni tafakkurdan mustaqil holatda o'rganib, ular orasidagi aloqani ikkita jarayon orasidagi haqiqiy tashqi mexanik bog'liqlik sifatida o'zida namoyon qiladilar (IPI,45). Tadqiq qilishning ushbu yo'li - "elementlar" bo'yicha tahlil - samarasiz yoki nutqiy fikrlash, nutq faoliyati jarayonida fikrlash va so'z orasidagi haqiqiy ichki munosabatni o'rganishda bizga yordam bermaydi. "Tafakkur va nutq" muammosini yechishni xohlagan tadqiqotchilar bilan uni nutq va tafakkurga ajratadi, qandaydir suvning xususiyati, chunonchi, nima uchun suv olovni o'chiradi,... ushbu xususiyatlarni tushuntirish vositasi sifatida suvni vodorod va kislorodga ajratish, ishga solish, ilmiy izoh topishni izlagan odam bilan ham xuddi shunday holat ro'y beradi (IPI,46). Vigotskiy "elementlar bo'yicha tahlil"ga o'rganilayotganlarning hammasiga xos bo'lgan, barcha xususiyatlarnimi saqlashi nutq faoliyatining shunday "katakcha"si sifatida taxmin qilinadigan "birliklar bo'yicha" tahlilni qarama-qarshi qo'yadi. Bunday katakcha bo'lib uning elementar "faoliyati", asoslanganligi, to'laligicha va ijroiya jihatlarining birligidagi faoliyatli akt hisoblanadi.

4.A.S.Vigoskiyning ichki nutq haqidagi ta'limoti va uning asosiy xususiyatlari. Ichki nutq bo'yicha ko'pgina qiziqarli ishlar nashr qilingan. Bu o'rinda ichki nutq mexanizmini elektrofiziologik tadqiq qilish bo'yicha amalga oshirgan A.N.Sokolovning klassik ishlarini alohida ta'kidlash kerak⁹.

Sokolovning ishlariga L.K.Nazarova, L.A.Novinkova va boshqalarning tadqiqotlari yaqin turadi¹⁰.

Ichki nutqni tadqiq qilishga sal boshqacharoq strategiya darajasidagi yonda-shuv deb nomlashimiz mumkin bo'lgan (ichki nutq talqini emas) yondashuv ushbu masala bilan ancha shug'ullangan (qiziqqan), ammo uning tadqiqiga hayotining oxiridagina kirishgan L.S.Vigotskiy uchun xarakterlidir (qarang: "Tafakkur va nutq"). Vigotskiy yondashuvining mohiyati shundaki, uningcha, ichki nutq, avvalo, umuman, "nutq minus tovush" emas, amalga oshish fazasidan oldin axborot shakllanadigan shu eksperimental poligon, ichki rejalashtirilgan qurol sifatida namoyon bo'ladi. U fikr va so'z orasidagi dinamik munosabatni bevosita ifodalaydigan nutq tafakkurining alohida ichki rejasidir...Ichki nutqdan tashqi nutqqa o'tish...o'zida tovush tomonidan kamgap nutqqa oddiy birikishni ichki nutqning oddiy vokalizatsiyasini emas, balki nutqni qayta qurish, mutlaqo mustaqil va o'ziga xos sintaksisga aylantirish, ichki nutqning ma'no va tovush tarkibi va tashqi nutqqa taalluqli boshqa struktura shakllarni aks ettiradi¹¹. B.T.Ananyev va N.I.Jinkinlar ishlaridagi biz ularning qulayligi sababli "obyektiv yondashuv rivojlanishi haqida bayon qilmaymiz", aksincha, ikkita semantik holati haqidagi A.A.Brudniyning qiziqarli (muhim) gipotezasiga to'xtalamiz: "So'zning ikkita semantik holatining o'zaro ta'siri mavjud: 1) ayrim semantik potensialga ega bo'lgan so'zning sistem (yoki parasituativ) holati; 2) semantik potensial ko'pgina "kontekstual ma'no" ko'rinishida amalga oshadigan semantik potensialning situativ holati...Biz, shartli ravishda, tizimli deb nomlagan semantik holat tamoyilida ichki nutq bilan bevosita kontaktda bo'lgan faoliyatning g'ayriixtiyoriy sohasi sifatida

⁹ A.N.Sokolov. 1)Tafakkurning nutq mexanizmlari muammosi bo'yicha tadqiqot. "Psixologik fanlar", 1-tom, M., 1959, shuningdek, uning yangi nashrlaridan: 2)Tafakkur jarayonida ichki nutq dinamikasi va funksiyalari (yopiq artikulyatsiyada), "RSFSR PFA axboroti", 113-chiqish. M., 1960; 3)Ichki nutqning elektromiografik tahlili va tafakkur (fikrlash)ning neyrodinamikasi muammosi. "Tafakkur va nutq". M., 1963

¹⁰ L.K.Nazarova. Yozuvda nutq kinesteziyalarining roli haqida. "Sovet pedagogikasi", 1953, 6-son; L.A.Novinkova. Nutq kinesteziyalarining elektrofiziologik tadqiqi. "Psixologiya masalalari", 1955, 5-son; shuningdek, M.S.Shkvarovanning SPdagi tezislar

¹¹ L.S.Vigotskiy. Tafakkur va nutq. "Tanlangan psixologik tadqiqotlar". M., 1956, 375-bet

qarashimiz mumkin. Agar soʻzning situativ jihatdan ongli ravishda qoʻllanilishi, qoida boʻyicha, “boshqasidan keyin bir soʻz” tipida nutq tadrijiyligini tashkil qilish bilan bogʻliq boʻlsa, unda tizimli nutq faolligi “bir soʻz, ayni paytda, boshqasi bilan tipi strukturasini tashkil qilib, sinxron jihatdan bir necha soʻzni qamrab olishi mumkin. Nutq xulqi mexanizmi boʻyicha ishlarni nihoyasiga yetkazish uchun hozirgi paytda tadqiqotlar olib borilayotgan yana ikkita yoʻnalishni eslatamiz. Avvalo, gap xatolar mexanizmlari tadqiqi haqida bormoqda. Afsuski, bu tipdagi ishlar barmoq bilan sanarlidir.

Shunday boʻlsa-da, nutqiy xatolar muammosini sistematik tadqiq qilish psixolingvistikaning alohida sohasini tashkil qilishi mumkin edi, chunki nutqiy xato u yoki bu holat taʼsiri ostida “uzoqlashgan” nutq mexanizmidagi oʻziga xos “chok” signalidir. Bular ham nutq faoliyatining hanuz ancha kam aloqador boʻlgan umumiy nazariyasi - “til tuygʻusi” tadqiqotlariga taalluqlidir

3. Verbal va noverbal tafakkur

1. Gʻayrihuuriylikning verbal va noverbal ifodasi. Fanda nutq faoliyati tabiati va uning muhim sifatii tavsifi, odatda, nutq xulqidagi belgi tizimining roli tahlili planida, ayrim istisnolardan tashqari, shu paytgacha juda ham muvaffaqiyatli boʻlmagan holda qoʻyildi¹².

Bunday ishlarni uchta guruhga ajratish mumkin. Ulardan biri—bu, aytish mumkinki, ortodoksal (izchillik, sobitqadamlik)—semiotik ishlar yoki belgi faoliyatining har xil turlarini baʼzi oldindan maʼlum boʻlgan umumiy tavsiflarga ega va ushbu belgi faoliyatining turlari, avvalo, belgilar tizimi tahlili orqali sharhlashga intilgan belgilar tizimining oddiy amalga oshishi sifatida belgilar tizimining turli koʻrinishlari sifatida qaraydigan ishlardir. Bunga, asosan, Vyach. Ivanov rahbarligida bajarilgan ishlar guruhi taalluqlidir¹³.

Ikkinchi guruhdagi ishlar semiotikadan olingan belgi tushunchasini psixologik sharh berishga urinishni oʻzida namoyon qiladi. Jumladan, gruzin psixologi

¹² R.V.Pozuxov. Mulohazaning maqsadga muvofiqligi. “Tilshunoslik muammolari”, L., 1961

¹³ V.Ivanov. Til informatsiyani uzatish va saqlashning boshqa vositalari qiyosida. “Amaliy va mashina tarjimai”. Kiyev, 1962; Belgi tizimini struktural oʻrganish boʻyicha simpozium. Maʼruzalar tezislari. M., 1962.

D.I. Pamishvili, moskvalik tilshunos N.A.Slyusareva va ayrim boshqa mualliflarning nashrlari ana shular jumlasidandir¹⁴. Aytish kerakki, ammo psixolingvistika uchun ushbu ikki guruh ishlari jiddiy nazariy ahamiyatga ega emas, chunki ularning mualliflari faoliyat strukturasini shu holicha tahlil qilmaydi, ular buni avval shakllangan belgilar sistemasidan kelib chiqarilar.

Uchinchi guruh ishlari, aksincha, birinchidan, aynan, belgilar tahlili, jumladan, chiqish obyekti sifatidagi nutq faoliyati, ikkinchidan, yana faoliyat jarayonida belgilar tizimining vujudga kelish muammosiga bag'ishlangan. Bunday ishlar juda ko'p emas, ularni barmoq bilan sanash mumkin.

Avvalo, bular G.P.Shedrovitskiy logikasi va uning maktabi ishlaridir. G.P.Shedrovitskiy nafaqat belgilar shakllari tayyor mulohazalar bilan, balki tafakkur shakllari bilan "ishlash"ga imkon beradigan prinsipial yangi logik apparat yaratishga intiladi. Ushbu "mazmundor logika" quyidagi qoidalardan kelib chiqishi kerak:

1) tafakkur, avvalo, faoliyat, aynan yangi bilimlarni ishlab chiqish bo'yicha faoliyat;

2) yadro—ushbu faoliyatning yuragi (markazi) bo'lib, borliq va ushbu mazmun bo'yicha "harakat"ning umumiy "foni"dagi muayyan mazmunning chiqishi (ajralishi)ni vujudga keltiradi;

3) tafakkur "materiali" va ishlatish (foydalanish) texnikasini tashkil qiladigan belgilar struktirasi ushbu strukturada aks etgan ana shu tipning mazmuniga bog'liq;

4) tafakkur, olimlar aytganidek, o'zida tarixiy taraqqiy etadigan yoki "organik butunlik"ni o'zida namoyon qiladi¹⁵.

G.P.Shedrovitskiy o'zining faoliyat va belgilarni tushunishida L.S.Vigotskiyning qarashlariga tayanishi ushbu iqtibosdan ham ishonch xosil qilish

¹⁴ D.I.Ramishvili. Nutq psixologiyasi nuqtayi nazaridan til belgisi muammosi. "Psixologlar jamiyati I syezdida ma'ruzalar tezislari". 1-chiqishi, M., 1959. 128-129-betlar; N.A.Slyusareva. Belgilar situatsiyasi haqida. "Til va tafakkur muammolari bo'yicha ilmiy munozara ma'ruzalari va axborotlari tezislari". M., 1965

¹⁵ G.P.Shedrovitskiy. "Formal" va "mazmun" mantiq chiqish tushunchalari farqlari haqida, Tomsk, 1962, 84-bet. Bu yerda ushbu maktabning 1961-yilgacha bo'lgan muhim ishlari, jumladan, bibliografiyasi sharhi ham bor. Shunigdek, qarang; G.P.Shedrovitskiy. "Til tafakkuri" va uni tadqiq qilish metodlari: Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. M., 1964. Bu yerda G.P.Shedrovitskiy ishlarining to'la ro'yxati bor (22-24-bet). Maxsus belgiga "Logika, psixologiya va tilshunoslikda belgini tadqiq qilishning asosiy yo'nalishlari tavsifiga doir"(V.N.Sladovskiy bilan birgalikda) sarlavhasi ostida birlashgan axborotlarga bag'ishlangan; Birinchi axborot - "Pedagogik fanlardagi yangi tadqiqotlar", 2-to'plam, M.,1964; ikkinchi axborot - shu yerda, IV to'plamda M., 1965; 3-axborot ham shu yerda, V to'plamda. M.,1965. Yana qarang: G.P.Shedrovitskiy. Sistem tadqiqot metodologiyasi muammolari. M., 1964

qiyin emas. Aslida, bu shunday. Ayniqsa, psixolingvistik nuqtayi nazardan Shredrovitskiyning til tafakkuriga (nutq faoliyati) bag'ishlangan ishi muhimdir. Uning muhim g'oyasi shundaki, til va tafakkur, garchi ayrim aloqaga kirishsa-da, mustaqil mohiyat sifatida bir-biridan ayrim harakat qiladigan va tarixiy rivojlanishdan vujudga keladigan ikkita obyektning mohiyatidir. Bir obyektning bu turli jihati til tafakkuri¹⁶ ning rivoji yagona jarayon hisoblanadi.

G.P.Shedrovitskiyning g'oyalari, ayniqsa, uning mantiqiy qismining o'zi, aslida, umuman, qabul qilinmagan va "an'anaviy" formal logika va "an'anaviy" faoliyatsiz psixologiya tomonidan bir marta ham tanqidga uchramadi, balki, aytish mumkinki, "chapdan" - Vigotskiy maktabining psixologlari orasida tanqidga tortildi. "Chapdan" bunday tanqid qilinishiga asosiy sabab Shedrovitskiyning ayrim ishlarida mustaqil ma'noga ega bo'lgan xarakter, tendensiyaga ega bo'lgan ortiqcha rasmiyatchilik bo'lib, immanent (ichki - biror hodisaning ichki xususiyatiga xos bo'lgan, uning tabiatidan kelib chiqadigan) jarayon sifatidagi faoliyat rivojini aks ettiradi. Ammo, agar bunday tanqid asosli, deb topilganda ham, ta'kidlash kerakki, Shedrovitskiyning faoliyat nazariyasini logik jihatdan bir xil asoslashga urinish sifatidagi konsepsiyasining obyektiv ahamiyati u yo'l qo'ygan, Vigotskiy maktabining "faoliyatli" yondashuvidan ayrim chekinishlarga nisbatan ancha katta bo'lib, barcha diqqat-e'tiborni ana shu chekinishlarga qaratish noo'rindek ko'rinadi.

Uchinchi guruhga, shuningdek, nutqiy faoliyat tadqiqiga bag'ishlangan ushbu kitob muallifining ishlari ham kiradi¹⁷. Ushbu ishlarida muallif nutq faoliyatining shakllanishi va amal qilishining muhim muammolarini kompleks yoritib berishga intildi.

O'zini L.S.Vigotskiyning izdoshlari deb hisoblamaydigan, ammo, hech bo'l-maganda, nutqiy gaoliyatni faol rivojlantirgan, umuman, uning qarashlariga yaqin

¹⁶ G.P.Shedrovitskiy. "Formal" va "mazmuniy" mantiq chiqish tushunchalari farqlari haqida, Tomsk, 1962, 84-bet. Bu yerda ushbu maktabning 1961-yilgacha bo'lgan muhim ishlari, jumladan, bibliografiyasi sharhi ham bor. Shuningdek, qarang; G.P.Shedrovitskiy. "Til tafakkuri" va uni tadqiq qilish metodlari: Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. M., 1964. Bu yerda G.P.Shedrovitskiy ishlarining to'la ro'yxati bor (22-24-bet). Maxsus belgiga "Logika, psixologiya va tilshunoslikda belgini tadqiq qilishning asosiy yo'nalishlari tavsifiga doir" (V.N.Sladovskiy bilan birgalikda) sarlavhasi ostida birlashgan axborotlarga bag'ishlangan; Birinchi axborot - "Pedagogik fanlardagi yangi tadqiqotlar", 2-to'plam, M., 1964; ikkinchi axborot - shu yerda, IV to'plamda M., 1965; 3-axborot ham shu yerda, V to'plamda. M., 1965.

¹⁷ A.A.Leontyev. 1) Tilning vujudga kelishi va dastlabki rivoji. M., 1963; 2) Nutq faoliyatida so'z. Nutq faoliyati umumiy nazariyasining ayrim muammolari. M., 1965; 3) Til va inson aqli. M., 1965. V.M.Pavlov ishlaridagi talqinlar bizning faoliyat bo'yicha talqinimizga yaqindir.

bo'lgan yana ikki muallifning ishlari haqida eslash kerak bo'ladi. Biz, birinchi navbatda, shu nuqtayi nazardan, ayniqsa, namunali sanalgan S.D.Kasnelsonning SPdagi "Ong-tafakkur-til-nutq" tezislari nazarda tutyapmiz. S.D.Kasnelson ko'rsatadiki, "Sossyur davridan buyon nutq xosil qilish jarayonini til sistemasida qo'uilgan ichki imkoniyatlarning amalga oshishi sifatida qarash qabul qilingan. Bunday tushunish haddan tashqari real kelajakni toraytiradi... Fikr (ma'no) tayyor psixik xosila sifatida til va nutqqa tashqaridan berilmaydi. Fikrning to'planishi va nutqning shakllanishi shunday qo'shib o'raladiki, ular o'zlarining hal qiluvchi fazasida fikr to'planishning yagona jarayoni - nutqni yuzaga keltiradi...Til strukturasi xususiyatlari faqat nutq-fikr va uning ijtimoiy-tarixiy shartiga aylantirish jarayonining xususiyatlarini inobatga olgan holatda, yetarli darajada anglanishi mumkin (SP,11-14). Shu munosabat bilan, eslash kerak bo'lgan boshqa muallif E.P.Shubin hisoblanadi, ammo Shubinning konsepsiyasi Vigotskiyning faoliyat nazariyasidan ancha uzoq bo'lib, ko'proq, til muomalasining an'anaviy talqinini aks ettiradi.

Bizga ushbu bo'limdagi sharhimizda, shuningdek, ko'proq diletant (havaskor, yuzaki ishqiboz, shunchaki qiziquvchan), ammo metodologik nuqtayi nazardan, tilshunoslar qiziqishini inobatga olgan holda, nutq jarayonida kompleks tadqiq qilish pozitsiyasidan yondashishni aks ettiradi. Bu M.V.Panov va E.B.Magazinikning maqolasi edi. Ulardan birinchisi tilning tizimlili miyaning¹⁸ sistemlili yoki strukturaliligi bilan mujassamlashishini, aniqrog'i, alohida bir fonetik muammo misolida nutq jarayonining psixofiziologik shartlanganligini ko'rsatishiga harakat qiladi. Ikkinchisi Boduen maktabida tilning ichki birligini assotsiativ (3. psixol. tasavvur, his-tuyg'u, fikr va shu kabilarning bir-birini eslatadigan o'zaro bog'lanish) talqini va Pavlovning fiziologiyadagi nutqqa shartli refleks nuqtayi nazaridan yondashishni ko'rsatishga harakat qiladi. "Ular uchun o'zaro bog'liq bo'lgan inson nutqi sohasida oliy nerv faoliyati fiziologiyasi va umumiy tilshunoslik, psixologiyaning natijalari va metodlariga o'zaro qiziqish ancha samarali", - deya

¹⁸ M.B.Panov. Ayrim reduksiyalashgan tovushlarning artikulyatsiya xususiyatlari haqida (akad. I.P.Pavlov ta'limoti asosida); V.P.Potemkin nomidagi MDPI ilmiy axboroti, XXXIII jild, 1954. 18-bet.

xulosalaydi Magazinik¹⁹. Ko'rsatilgan ikkita maqola, shunday bo'lsa-da, bitta kamchilikka ega: ular yalpi nutq faoliyatini yoki nutq jarayonini nazarda tutmaydi, balki faqat lingvistik dalillarga psixofiziologik asos izlay borib, uning ayrim komponentlarini nazarda tutadi va ushbu jarayonning harakatlantiruvchi kuchlari va struktura, umuman, uning o'ziga xos xususiyati masalasini ilgari surmaydi.

Noverbal kommunikatsiyada belgilar tizimi sifatida quyidagi tizimlardan foydalaniladi:

1. Optik-kinetik tizimda imo-ishoralar (qo'l motorikasi), mimika (yuz motorikasi), pantomimika (butun gavda motorikasi) kiradi. Ularni o'rganish uchun alohida soha-kinesika shakllangan.

2. Paralingvistik tizim ovoz vokalizatsiyasidan iborat bo'lib, unga ovoz sifatlari, diapozoni kiradi. Ekstralingvistik tizimga to'xtalishlar, yo'talib qo'yishlar, yig'i, kulgi, nutq tempi kiradi.

3. Proksemik tizimga kommunikativ jarayon ishtirokchilarining fazodagi joylashuvi va kommunikatsiya vaqti kiradi.

4. Vizual kontaktga ko'zlar orqali muloqot qilish kiradi. Dastlab, muloqotning bunday turi faqat intim muloqot doirasidagina bo'lishi mumkin, deb hisoblangan. Ammo so'nggi tadqiqotlar visual kontakt boshqa sohalarda, ya'ni tibbiyot, pedagogika, boshqaruv kabilarda ham kuzatikishi isbotlanmoqda.

Noverbal kommunikatsiya tizimlari kommunikatsiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ular nutqni to'ldiradi, uning o'rnini bosadi, kommunikativ jarayon ishtirokchilarining emotsional holatini kas ettiradi.

2. G'ayrihuuriylik haqidagi talqinlar motivlari. Ushbu sohada, ayniqsa, psixolingvistik tadqiqotlarning ko'pchiligi jamlangan bo'lib, ularning nazariy darajasi ancha ahamiyatlidir.

Mazmun bo'yicha qobiliyatning strukturasi haqidagi masalani talqin qiladigan ancha umumiy xarakterdagi ishlardan boshlaymiz. Bunday ishlardan bittasini aytish mumkin.

¹⁹ M.B.Panov. Ayrim reduksiyalashgan tovushlarning artikulyatsiya xususiyatlari haqida (akad. I.P.Pavlov ta'limoti asosida); V.P.Potemkin nomidagi MDPI ilmiy axboroti, XXXIII jild, 1954. 18-bet

Bu, birinchidan, N.I.Jinkinining mashhur monografiyasi–“Nutq mexanizmlari”dir²⁰. Jinkinining qarashlari, ko‘pincha, nutq jarayoni haqida “faoliyatli” tasavvurga javob beradi, ammo uning “fonemalar fondidan”, “tovushlarni tanlash”, “axborot tuzish uchun lug‘at fondidan so‘zlarni tanlash”, so‘zni axborot birligi, axborotni mustaqil ma’noga ega bo‘lgan narsadan boshqa hech narsa emas, deb qarashi, yalpi faoliyat sistemasida (va b.) nutq akti o‘rni haqidagi masalani qo‘ymasligi ziddiyatni keltirib chiqaradi. N.I.Jinkin konsepsiyasining mana shu kamchiliklarini ko‘rsata borib, biz N.I.Jinkinni nutqni tilshunoslar va psixologlar orasida, nafaqat bizning mamlakatda, balki xorijda ham mashhur qilgan, shak-shubhasiz, obro‘cini tan olamiz.

Ikkinchidan, S.D.Kasnelson tomonida SPda tavsiya qilingan modelni eslaymiz. Ushbu modelning tezislar shaklidagi ko‘rinishi quyidagicha:

- 1) nutqni rivojlantirish plani va mavzusini ajratish;
- 2) ongning elementlarini kvantlash (kvantlarga bo‘lish–chiqarilish yoki yutilishi mumkin bo‘lgan eng oz, bo‘linmas energiya miqdori) alohida “propozitsiya”(gaplar)ga ajratish va predikativ ma’nolar yordamida “propozitsiya” elementlarini aniqlash;
- 3) “propozitsiya”ni obyektlarni va ayrim ma’nolar mazmunini aniqlash, shuningdek, fikr bilddirishning intensiyasi, modalligi kabilarni faollashtirish;
- 4) fikr bildirishni morfologik shakllantirish (rasmiylashtirish);
- 5) uni fonatsion (nutq tovushlari talaffuzi) jihatidan amalga oshirish (SP, 13-bet).

SP (psixolingvistlar seminari)da nashr qilingan uchinchi ma’ruza A.R.Luriya va L.S.Svetkovaga tegishli bo‘lib (“nutqiy fikr bildirishning ayrim neyropsixologik mexanizmlari haqida”), unda predikatsiyani boshqaradigan (predikativlik qanday ifodalanishiga qaramasdan) mexanizmlarni cheklashga urinish qilinadi.

Ishlardan to‘rtinchisi ushbu muammoga bag‘ishlangan bo‘lib, bu Y.L.Ginzburgga²¹ tegishli bo‘lib, L.S.Vigotskiy va N.A.Bernshteyn g‘oyalarini rivojlantirgan va N.I.Jinkinga qarama-qarshi o‘laroq, nutq strukturasi mexanizmiga berishga intilgan

²⁰ N.I.Jinkin. Nutq mexanizmlari. M.,1958. Shuningdek, qarang: N.I.Jinkin. Nutq mexanizmini o‘rganish yo‘lida. Biz bu yerda Jinkin modelini bayon qilmaymiz, sababi uni adabiyotlardan osongina topish mumkin

²¹ Y.L.Ginzburg. 1) Nutq harakatining programm sxemalari haqida. “XVIII Xalqaro psixologik kongress. Ma’ruzalar tezislari” 2-chiqishi. M., 1966; 2) Algoritmning ichki nutq mexanizmlarga muvofiq kelishi mumkin bo‘lgan lo‘nda algoritmning bir klassi haqida.

turli omillar bilan determinlashgan (aniqlangan) va qotib qolgan mexanizm sifati emas, harakat jarayonida funksional sistemaga o'zgaradigan nutq mexanizmi strukturasini berishga intilgan aralash mavzulardagi nashrlarning asl birligidir.

Beshinchi ish ham L.S.Vigotskiy va N.A.Bernshteyn g'oyalarini rivojlantirgan, ammo yalpi nutq jarayoni modelini bermaydigan—yuqorida eslatilgan bizning “Nutq faoliyatida so‘z” nomli monografiyamiz.

So‘zsiz, nutqning paydo bo‘lish mexanizmi va fonetik tomonini idrok qilish bo‘yicha ancha muhim turkum nashrlar L.A.Chistovich va I.P.Pavlov nomidagi Fiziologiya institutidagi uning laboratoriyasi va uning xodimlariga tegishlidir. Chistovich rahbarligida nutq jarayonining ancha aniq psixolingvistik modeli ishlab chiqilgan. Uning ancha muhim xususiyatlari quyidagilar:

1.Nutqni payqashning birinchi etapi eshitiladigan nutq, ichki imitatsiya (o‘xshatib ishlangan, yasama, taqlid) deb atash mumkin bo‘gan jarayon eshitiladigan nutqni artikulatsion payqash hisoblanadi²².

2.“Inson oddiy holatda nutq elementlarini payqash va ularni o‘zining artikulatsion organlarida komplekslar komandasiga aylantirishga qobil. Elementni payqash uzunligi nutq tovushi uzunligidan oshmaydi”. Ushbu vaqtinchalik oraliq, ayni paytda, bevosita eshitish xotirasida mavjud bo‘lgan shu signal parchasiga muvofiq keladi...Tovush signalidan imitatsiyaning artikulatsion komandalari majmuasiga o‘tish fonema simvolini oraliq tanlash(saylash)siz amalga oshiriladi.

Ushbu komandalar natijasida erishilgan nutq mexanizmining keyingi holati, bilib olishning keyingi etapida nutq signalini tayyorlash uchun olingan va esda saqlangan ushbu komandalar natijasida erisilgan nutq mexanizmining oxirgi holati va fonemaning mohiyati²³.

Inson tomonidan eshitilgan nutqni payqashning butunicha tartibini taxminan quyidagi tarzda ishlatish mumkin. Birin-ketin keladigan nutq tovushlari xotirada ularning belgilari bo‘yicha tavsiflar to‘plami sifatida yozib boriladi; unlilar ularning urg‘ulilik (urilish) darajasini bildiradigan markalari bilan yoziladi. Urg‘uli bo‘g‘in

²² L.A.Chistovich. Insonning odamdagi (har kungi) nutqni payqashi. “Mashina tarjiması va amaliy matematika”. 7-chiqish. M., 1962. 121-bet

²³ L.A.Chistovich. Inson tomonidan nutqning fahmlanishi (bilib olinishi) strategiyasi haqida. “Psixologlar jamiyatining II syezdidagi ma’ruzalar tezislari”. 3-chiqish, M., 114-120-bet. (keyinchalik”, II syezd” tarzida beriladi

idrok qilingandan keyin, soʻzning shartli chegarasi belgilanadi va lugʻatdan muvofiq soʻz izlanadi.

Agar qaror qabul qilinsa, bu bilan soʻzga kiritilgan boʻlak, (parcha) chegarasi belgilanadi, keyingi tanlanadigan lugʻat qisqartiriladi.

Soʻz urgʻusi frazadagi barcha soʻzlarning miqdorini bilishga imkon beradi. Ayni paytda, urgʻuning holati soʻzning muhim farqlovchi belgisi hisoblanadi. Shunday qilib, boʻginga nisbatan ancha yirik axborotlar parchalari yangi foydali akustik qarashlar–axborot ritmiga ega boʻladi²⁴.

Chistovich tomonidan tadqiqotining birinchi etapida olingan dalillar asosida uning modeliga qatʼiyan zid boʻlmagan, ammo keyinchalik, eksperimentlarning davomida ancha qoʻpol boʻlgan ikkita taxminiy psixolingvistik model ilgari surildi. Bizga maʼlumki, hozir ushbu model muammolaridan hech biri ularni maʼqullamaydi, ammo oʻz vaqtida ular ikkalasi ham “fonema boʻyicha” idrok qilish haqidagi anʼanaviy tasavvurni zaiflashtirib, L.A.Chistovichning ishlarini tilshunoslar orasida omma-lashtira borib, ijobiy rol oʻynadi²⁵.

L.A.Chistovichning ishlari, darvoqe, ana shu planda ham qiziqish uygʻotadi, mohiyatiga koʻra, psixolingvistik voqelik sifatida binar (qoʻsha) farqlovchi elementlar nazariyasini rad etadi. L.A.Chistovich tadqiqotlaridan juda ravshan koʻrinadiki, bilib olish (payqash) minimal elementlaridan, nutqning xosil boʻlishi Yakobsonning farqlov elementlari emas, eng muhimi, I.A.Boduen de Kurtenening “kinakemlari” hisoblanadi²⁶.

Fonatsiya mexanizmiga aloqador, N.I.Jinkin²⁷ muhim gʻoyasi shundan iboratki, nutqiy boshqarish ikki sistema - ixtiyoriy va noixtiyoriydan iborat. Oxirgisi nutqiy fonatsiyaning aerodinamik shartlari avtomatik tartibini amalga oshiradi. Aniqrogʻi, artikulatsion organlarni zarur miqdorda havo bilan taʼminlaydi. Boʻgʻinning xosil boʻlishini Jinkin aynan boshqaruvning noixtiyoriy sistemasi bilan bogʻlaydi.

²⁴ Nutq. Artikulatsiya va idrok qilish. M.- L., 1965. 223-bet. Shu toʻplamdagi bibliografiyaga, shuningdek. SPga qarang. Chistovichning ayrim natijalari bayoni va sharhi quyidagi kitobda berilgan: A.A.Leontev. Nutq faoliyatida soʻz. 108-bet

²⁵ Vyach.V. Ivanov. Fonologik modellarning maqbulligi haqida. “Mashina tarjimasi”, M.,1961; A.A.Leontyev. Psixolingvistika va nutqning funksional birliklari muammosi. “Hozirgi chet mamlakatlarda tilshunoslikda til nazariyasi masalalari”. M.,1961.

²⁶ Yakobsonning modeli tanqidini “L.R.Zinderning (L.V.Bondarenko bilan mualliflikda). Rus tili undosh fonemalarining ayrim farqlovchi belgilari haqida. VY, 1, 1966, 10-14-betlar

²⁷ N.I.Jinkin. Nutq mexanizmlari. M.,1958

Nutqiy idrok qilish muammosi sovet fanida ko'p va ancha muvaffaqiyatli o'rganildi, muammolarga nisbatan samarasi bisyor bo'ldi. Biz bu yerda bu ishlarning hammasi haqida to'xtalmasdan, faqat ulardan ancha muhimlarini ko'rsatamiz.

Birinchidan, fonemani idrok qilish injenerlik psixologiyasi bilan bog'liqlikda o'rganildi. To'g'risini aytganda, L.V.Sherba va V.K.Orfinskayaning ishi qator mana shunday tadqiqotlarni boshlab berdi²⁸.

Ikkinchidan, bir qancha ishlar urg'uni idrok qilishga bag'ishlangan. Biz bu yerda shunday ishlardan ikkitasini: N.I.Jinkinining ma'lum maqolasi va V.A.Artyomov rahbarligida bajarilgan I.S.Seleznevaning dissertatsiyasini keltiramiz²⁹

Uchinchidan, A.N.Leontyev va Y.B.Gippenreyterga tegishli bo'lib, urg'u tonlari yoki nutqning yuqori tovushli komponentlari idrok qilinishining eksperimental tadqiqiga bag'ishlangan maqolasini eslaymiz. Bunday idrok qilish mexanizmi ham musiqiy eshitish mexanizmi ekanligi ma'lum bo'ldi (tili bo'g'in toniga ega bo'lgan vietnamliklarda yevropaliklar uchun xos bo'lgan "yuqori tovushli qulog'i og'irroq" kuzatilmaydi).

Nihoyat, Leningrad davlat univesitetidagi eksperimental fonetika laboratoriyasida nutqni idrok qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga to'xtalmasdan bo'lmaydi³⁰. Bular qatoriga N.I.Dukelskiyning fonemalar shakllarining nutq oqimida nofonema segmentatsiyasi (bo'g'im-bo'g'im tuzilish) asosida shakllanishga aloqador bo'lgan qiziqarli nashri qo'shiladi, ammo u alohida o'rin egallaydi.

Endi nutqning xosil bo'lish mexanizmi va idrok qilinishining grammatik tomonlari bo'yicha ishlar sharhiga o'tamiz.

Bu yerda darhol ko'rsatish kerakki, "psixolingvistik grammatika" modellarining bir necha turi mavjud.

²⁸ L.V.Sherba va V.K.Orfinskaya. Radioeshittirishda nutqni idrok qilishning o'ziga xos xususiyatlari. "Kar va qulog'i og'ir bolalarda eshitish va ritmni tarbiyalash va tadqiq qilish metodlari. M., 1936. Keyingi yillar ushbu sohada amalga oshirilgan ishlarning yakuni M.A.Sapojkovning "Kibernetika va aloqada nutq signali". M., 1963; "Injenerlik psixologiyasi". M., 1964

²⁹ N.I.Jinkin. Ruscha so'zlarda urg'uni idrok qilish. "RSFSR PFA axboroti", 54-chiqish, M.,1954; I.S.Selezneva. Puscha so'zlarda urg'uni idrok qilishning ba'zi xususiyatlari. "Psixologiya masalalari", 1957, 4-son.

³⁰ L.A.Verbitskaya. Rus nutqining tovush etalonlari haqida. Unlilar materiallari asosida. "Fonetika masalalari". L.,1964; L.V.Bondarko, L.A.Verbitskaya, L.R.Zinder. Rus nutqining aniqlanadigan tovush birliklari va ularning fonemalar bilan muvofiqligi.

Ulardan biri an'anaviy bo'lib, N.Xomskiy terminida - "taksonomik"(tartib bilan tuzilgan qonun). Ushbu modeldan, jumladan, grammatikani o'qitish metodikasini takomillashtirish bilan shug'ullanadigan D.B.Elkonin guruhi psixologlari, shuningdek, pedagogik yo'nalishdagi boshqa psixologlarning ko'pchiligi kelib chiqadilar. Aftidan, ushbu nuqtayi nazardan yondashuv to'la isbotlangan, sababi biz nutq mexanizmining yuzaga kelishi va ishlash jarayoni bilan emas, balki ushbu mexanizmning boshqa, nazorat asosida shakllanishining ikkilamchi jarayoni bilan ish ko'ramiz.

Nutq mexanizmining o'ziga keladigan bo'lsak, unda uning ancha keng tarqalgan turi Xomskiyning modeli tipidagi vujudga keltiruvchisi tipidagi model hisoblanadi. U, asosan, injenerlik psixologiyasi talablari bilan bog'liq bo'lgan ishlarda qo'llaniladi. Ulardan to'siq sharoitida nutq axborotining grammatik strukturasini idrok qilish tadqiq qilingan I.M.Lushixinaning dissertatsiyasini,³¹ Ginzburg va boshqalarning televizor ekranida qisqa muddatda to'la va qisqa gaplarning qayta tiklanishi (eshittirilishi) bo'yicha ishlarni eslaymiz. Bundan tashqari, Miller, Pribram va Galanter kitobidan olin(o'zlashtiril)gan vujudga keltiruvchi model Y.S.Stepanov va Y.N.Karaulovlarning ishlarida rivojlantiriladi (qarang: SP).

Keyingi paytlarda A.R.Luriya yangi vujudga keltiruvchi modelning kerakligi haqidagi tezislarni ilgari suradi. Bu yo'nalishdagi ishlar hozir ham davom etmoqda. A.R.Luriyaning g'oyalari avvalgilarga o'xshash.

Ichki nutq bo'yicha Sho'rolar davrida ko'pgina qiziqarli ishlar nashr qilingan. Bu o'rinda ichki nutq mexanizmini elektrofiziologik tadqiq qilish bo'yicha amalga oshirgan A.N.Sokolovning klassik ishlarini alohida ta'kidlash kerak³². Sokolovning ishlariga L.K.Nazarova, L.A.Novinkova va boshqalarning tadqiqotlari yaqin turadi.

Ichki nutqni tadqiq qilishga sal boshqacharoq strategiya darajasidagi yondashuv deb nomlashimiz mumkin bo'lgan (ichki nutq talqini emas) yondashuv ushbu masala bilan ancha shug'ullangan (qiziqqan), ammo uning tadqiqiga hayotining oxiridagina

³¹ I.M.Lushixina. Oq shovqin sharoitida nutq axborotini eshitish. Nomzod.disser.avtoreferati. L.,1965; Yana qarang: I.M.Lushixina. 1) Nutq kommunikatsiyasi sheriklarining grammatik aloqa aspekti haqida. SP; 2) So'z birikmalarining barqarorligi va shovqinga chidamliligining o'zaro munosabati. "Umumiy, ijtimoiy va injenerlik psixologiyasining muammolari" .L., 1966.

³² A.N.Sokolov. 1)Tafakkurning nutq mexanizmlari muammosi bo'yicha tadqiqot. "psixologik fanlar", 1-tom, M., 1959, shuningdek, uning yangi nashrlaridan: 2)Tafakkur jarayonida ichki nutq dinamikasi va funksiyalari (yopiq artikulyatsiyada), "PFA axboroti", 113-chiqish. M., 1960; 3)Ichki nutqning elektromiografik tahlili va tafakkur (fikrlash)ning neyrodinamikasi muammosi. "Tafakkur va nutq". M., 1963

kirishgan L.S.Vigotskiy uchun xarakterlidir (qarang: “Tafakkur va nutq”). Vigotskiy yondashuvining mohiyati shundaki, uningcha, ichki nutq, avvalo, umuman, “nutq minus tovush” emas, amalga oshish fazasidan oldin axborot shakllanadigan shu eksperimental poligon, ichki rejalashtirilgan qurol sifatida namoyon bo‘ladi. U fikr va so‘z orasidagi dinamik munosabatni bevosita ifodalaydigan nutq tafakkurining alohida ichki rejasidir...Ichki nutqdan tashqi nutqqa o‘tish...o‘zida tovush tomonidan kamgap nutqqa oddiy birikishni ichki nutqning oddiy vokalizatsiyasini emas, balki nutqni qayta qurish, mutlaqo mustaqil va o‘ziga xos sintaksisga aylantirish, ichki nutqning ma’no va tovush tarkibi va tashqi nutqqa taalluqli boshqa struktura shakllarni aks ettiradi³³. T.Ananyev va N.I.Jinkinlar ishlaridagi biz ularning qulayligi sababli “obyektiv yondashuv rivojlanishi haqida bayon qilmaymiz”, aksincha, ikkita semantik holati haqidagi A.A.Brudniyning qiziqarli (muhim) gipotezasiga to‘xtalamiz: “So‘zning ikkita semantik holatining o‘zaro ta’siri mavjud:

1) ayrim semantik potensialga ega bo‘lgan so‘zning sistem (yoki parasituativ) holati;

2) semantik potensial ko‘pgina “kontekstual ma’no” ko‘rinishida amalga oshadigan semantik potensialning situativ holati...Biz, shartli ravishda, tizimli deb nomlagan semantik holat tamoyilida ichki nutq bilan bevosita kontaktda bo‘lgan faoliyatning g‘ayriixtiyoriy sohasi sifatida qarashimiz mumkin. Agar so‘zning situativ jihatdan ongli ravishda qo‘llanilishi, qoida bo‘yicha, “boshqasidan keyin bir so‘z” tipida nutq tadrijiyligini tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, unda tizimli nutq faolligi “bir so‘z, ayni paytda, boshqasi bilan tipi strukturasini tashkil qilib, sinxron jihatdan bir necha so‘zni qamrab olishi mumkin.

Nutq xulqi mexanizmi bo‘yicha ishlarni nihoyasiga yetkazish uchun hozirgi paytda tadqiqotlar olib borilayotgan yana ikkita yo‘nalishni eslatamiz. Avvalo, gap xatolar mexanizmlari tadqiqi haqida bormoqda. Afsuski, bu tipdagi ishlar barmoq bilan sanarlidir. Shunday bo‘lsa-da, nutqiy xatolar muammosini sistematik tadqiq qilish psixolingvistikaning alohida sohasini tashkil qilishi mumkin edi, chunki nutqiy xato u yoki bu holat ta’siri ostida “uzoqlashgan” nutq mexanizmidagi o‘ziga xos “chok”

³³ L.S.Vigotskiy. Tafakkur va nutq. “Tanlangan psixologik tadqiqotlar”. M., 1956, 375-bet

signalidir. Bular ham nutq faoliyatining hanuz ancha kam aloqador bo'lgan umumiy nazariyasi - "til tuyg'usi" tadqiqotlariga taalluqlidir.

3. Intellektual faoliyat strukturasida g'ayrushuuriylikning ahamiyati. Maktabda, oiliy o'quv yurtlarida o'qish, yozish, keyinroq esa til va adabiyot darslarida bolalarda muloqot vositasi sifatida tilda va munosabat jarayoni sifatida nutqqa ongli munosabat shakllantiriladi. Til o'qituvchisi tomonidan maxsus uyushtirilgan tahlil predmetiga aylangan holda o'qituvchilar oldida ijtimoiy jihatdan shakllangan qonunlar ta'siriga bo'ysunadigan murakkab belgilar izimi sifatida namoyon bo'ladi. Intellektual faoliyat strukturasida g'ayrushuuriylikdan samarali foydalanish yaxshi samara berishi mumkin.

4. Inson psixologiyasida onglilik va g'ayrushuuriylikning o'zaro munosabati. Biz bu yerda, avvalo, o'quvchiga allaqachon ma'lum bo'lgan Vigotskiyning ontogenezida ma'noning struktur evolutsiyasining tadrijiy pog'onasi atroflicha tadqiq qilingan, xohlagan tilning lug'at tarkibining psixolingvistik bir xil emasligi ko'rsatilgan va nutq faoliyatining kompleks psixolingvistik tadqiqi nuqtayi nazaridan muhim bo'lgan so'z semantikasining ayrim xususiyatlari ochib berilgan. Mana shu nuqtayi nazardan, L.S.Vigotskiyning "Tafakkur va nutq" kitobini eslatishning o'zi kifoyadir. Mana shu nuqtayi nazardan, A.N.Leontyevning "Psixikaning rivojlanish muammolari" kitobi, shuningdek, yuqoridagi iqtiboslar muhimdir: unda, jumladan, "ma'no" tushunchasiga "fikir" tushunchasi kiritiladi, korrelyativ detallashtiriladi. Ushbu farqlarning qisqacha mohiyatini bayon etishga urinishni bizning "Nutq faoliyatida so'z" nomlin kitobimizning 3-bobidan ko'rishingiz mumkin.

Afsuski, semantikaning umumiy masalalari bo'yicha jiddiy ishlar (psixolingvistik aspektda) juda kam. Shunday bo'lsa-da, bularning barchasi L.S.Vigotskiy g'oyalariga o'xshashi tasodifiy emas. A.A.Brudniyning (shuningdek, uning boshqa ishlari ham) avval ta'kidlangan maqolasining uncha katta bo'lmagan, ammo ma'no komponentlari sistemasi tavsiya qilingan G.P.Shedrovitskiyning maqolachasi, shuningdek, N.G.Morozovanning tilning odatdagi tashuvchisi va kar-soqov tasavvuridagi ma'noning psixolingvistik strukturasidagi farqlarga bag'ishlangan maqolasini tilga olamiz.

Ishlarning uncha katta bo‘lmagan guruhi atash jarayonini eksperimental o‘rganishga bag‘ishlangan. Bular D.N.Uznadze maktabiga tutashadigan mualliflarning ishlari.

Semantikaning psixolingvistik masalalari bo‘yicha asosiy ishlar verbal assotsiatsiyaning eksperimental tahlili bilan bog‘liq. Ushbu ishlar shu paytgacha ikkita parallel yo‘nalish bo‘yicha davom etdi. Ulardan biri A.G.Ivanovning Smolensk maktabiga, pirovardida—I.P.Pavlovning “ikkinchi signal sistemaqsi” konsepsiyasiga borib taqaladi. Keyingisini L.S.Vigotskiy yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan va A.R.Luriya boshchiligidagi o‘tkazilgan tadqiqotlar tashkil qiladi.

Ushbu ishlar natijasida inson psixikasida so‘z(aloqa)ning ikki tovush va semantik ko‘rinishda ishtirok etishi ko‘rsatildi. Odatda, voyaga yetgan normal odamda shartli refleks aynan ma’noda shakllanadi. Ushbu qoidaning buzilishi va tovush aloqasiga “sakrash” yoki potologiyada, yoki qo‘zg‘alishning kuchayishida (kofein, fenamin va boshqalarning ta’sirida), nihoyat, bolalarda sodir bo‘ladi. Ayniqsa, so‘z signallariga tavsiya etilgan tekshirilayotgan reaksiya va olingan qiziq faktlarning obyektiv qayd qilinishi metodikasini ishlab chiqqan A.R.Luriya va O.S.Vinogradovlarning tadqiqotlari muhimdir³⁴. Ammo ushbu turkumdagi ishlar nihoyasiga yetmay qoldi.

Minsklik tilshunos olimi A.P.Klimenko Osgud va uning guruhi tomonidan tavsiya etilgan metodikani rivojlantira borib, “ma’noni o‘lchash” bilan shug‘ullandi. O‘z tadqiqotlarida, SDga, avvalo, SD bo‘yicha bahoni aniqlaydigan omillarni ochishga tayangan Osguddan farqli o‘laroq, Klimenko, asosan, ushbu metod boyicha belgilanadigan “psixolingvistik maydon”ning tizimlilik va tilni, injenerlik psixologiyasi va boshqalarni o‘qitishda ushbu tizimlilikdagi dalillardan amalda foydalanish imkoniyati qiziqadi.

Semantika sohasida eksperimental, jumladan, bevosita ifodalangan verbal assotsiatsiyalar metodikasi yordamidagi tadqiqotlar Moskvada L.A.Novikov rahbarligida olib borilmoqda. Ularning natijalari hanuz nashr qilinmagan.

³⁴ O.S.Vinogradova va N.A.Eysler. Tomirli reaksiyalarni qayd qilishda so‘z aloqalarining yuzaga chiqishi. (aniqlanishi). “Psixologiya masalalari”, 1959, 2-son

Ushbu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar juda kam. Faqat F.N.Shemyakinning turkum ishlari va soʻzning oʻzaro munosabati va rangni idrok qilish muammosi boʻyicha ayrim nashrlarni, eksperimentlardan esa Leningradda tovush simvolizmini oʻrganish boʻyicha endigina olingan va hanuz A.S.Shternning nashr qilinmagan materiallari va shu yoʻnalishda M.V.Panov rahbarligida amalga oshirilgan bir qancha ishlarni tilga olish mumkin. Aytish kerakki, ushbu mavzu boʻyicha ishlarga ancha vaqtgacha “fandan tashqari” sifatida qaralib kelindi. Tilning hissiy aks etish va birinchining keyingisiga oʻzaro taʼsiri haqidagi masalaning qoʻyilishi, shuningdek, eshitishning qisman motivlanganligi prinsipial imkoniyati haqidagi masala tadqiqotchining “ana shu” falsafiy gʻoyalarga tarafdorligi belgisi, deb hisoblandi. Yumshoq qilib aytganda, bunday kam ilmiy yondashuv 60-yillar boshlarigacha yashadi va ayrim tilshunoslarning 1961-yilning boshida boʻlib oʻtgan lisoniy nisbiylik muammosi boʻyicha simpoziumiga munosabatida oʻz aksini topdi. Ushbu simpozium materiallari nashr qilinmasdan qoldi.

Lennebyorg nomli olim oʻtirgan, soʻzlab bilmaydigan bolani tadqiqoti shuni koʻrsatdiki, imitatsiya va tasdiq til oʻzlashtirish mutlaqo va soʻzsiz omili emas. Bola normal nutq chiqarishga ega emas edi. Lekin u ingliz fonologiyasi va sintaktikini mukammal darajada bilgan. U hikoyalarni tushunib, ulardan chiqqan savollarga bosh chayqab javob bera olgan. Bunday bolalarni oʻrganish jarayonida shu ayon boʻldi-ki, ular fonologik qarama-qarshiliklarni normal darajada qabul qilishadi, ammo bu bolalar oʻz nutqini hech qachon imitatsiya qilmagan va oʻz nutqiga tasdiq olmagan. Demak, insonning miyasi axborotni juda nozik holda qayta ishlashga va uni tahlil qilishga qodir, natijada yaxlit bir lingvistik tizim paydo boʻladi.

III bob bo'yicha xulosa.

Demak, rus psixologlarining fikri bo'yicha, tafakkur va nutq yoshlikda chambarchas bog'liq bo'lib, keyinchalik, rivojlanish sari, kattalarni tafakkuri tildan ma'lum darajada erkinlashadi, aniq yoki yashirin nutqiy ta'sirlardan.

1930-yillarda faoliyat ko'rsatgan psixolog L. S. Nyugomskiy mazkur muammoni o'rganishda o'zini katta xissasini qo'shdi. O'zining eng mashhur "Tafakkur va nutq" asarida, Nyugomskiy shunday fikr bildiradi-ki, filogeneza ham, ontogeneza ham noverbal tafakkurning elementlari mavjud (masalan, amaliy vazifalarni yechishda qo'llaniladigan "amaliy" tafakkur), hamda nointellektual nutqning elementlari (masalan, emotsional xayqiriqlar). Muallif shu ikki elementni bir-biri bilan bog'liq holda rivojini nutq tafakkurga xizmat qiladigan, tafakkur esa nutqda aks qiladigan davrgacha kuzatadi.

UMUMIY XULOSALAR

Bildirilgan fikrlar asosida shunday xulosalar chiqarish mumkin:

1. Hozirgi zamon tilshunosligining grammatika sohasidagi tadqiqotlariga psixologiya katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan, til va nutq munosabatini o'rganishda va ularning inson tafakkurida aks etishi hamda rivojlanishida psixologiyani o'zni katta o'rin tutishi aniqlandi.
2. Til va nutq munosabatini nazariy eksperimental jihatdan o'rganish, uni tahlil qilish, yangi tajribalar o'tkazish psixolingvistikaning keyingi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.
3. Har bir inson yoshligidan fikrlash qobiliyatini, shuningdek, nutqini shakllantirib boradi. Bu jarayonda inson o'z imkoniyatlari doirasida katta va mashaqqatli mehnat qiladi. Shu sababdan psixolingvistlarning fikricha, inson yoshligidan to'g'ri va aniq ma'lumot olib borishi lozim. Aks holda noaniq va betartib ma'lumot asosida shakllangan nutq insonning rivojlanishi va til qonuniyatlari bo'yicha tegishli hukm chiqarishiga yo'l qo'ymaydi.
4. Har bir tushunchani aniq ta'riflashgina qabul qilingan ma'lumot asosida komponent tahlil uslubi va ma'nosi haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.
5. Har bir tilda o'rganuvchining ayol yoki erkakligi, yosh-qariligidan qat'i nazar, birinchi navbatda, faol leksik-semantik qatlamni o'zlashtirish asosiy vazifa sanaladi. Ya'ni, har bir til egasi yoshlikdan asosiy e'tiborini tilning faol qo'llanuvchi birliklariga qaratishi shu til bo'yicha amaliy va nazariy tasavvurning tez va to'g'ri shakllanishiga xizmat qiladi.
6. Psixologlarining fikri bo'yicha, tafakkur va nutq yoshlikda chambarchas bog'liq bo'lib, keyinchalik, kattalarning til tafakkuri ma'lum darajada erkinlashadi, aniq yoki yashirin nutq paydo bo'ladi.
7. Psixolingvistikada o'tkazilgan tajribalar asosida shunga amin bo'ldikki, nutq birliklari sanalgan so'z birikmalari va gap suhbat jarayonida yuzaga kelmasdan, boshqa til birliklari kabi inson tafakkurida tayyor holda saqlanib turadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. –Т., 1999.
2. Азизов О. Тилшуносликка кириш. –Т., 1996.
3. Азим Ҳожиёв “Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати” Тошкент “Ўзбекистон энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002.
4. Акшина А.А. Пособие по курсу «Введение в языкознание». –М, 1969.
5. Ахманова О.С. Психоллингвистика ҳақида. М., 1957.
6. Баскаков Н.А., Содиков Н.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. Т.: 1979.
7. Бегматов Э. Маънавият кўзгуси. –Тошкент: Фан. 1993.
8. Бегматов Э. Нотикнинг нодир бойлиги. –Тошкент, 1980.
9. Гозиев Э. «Тафаккур психологияси». Т., 1990 й.
10. Информационные вопросы семиотики, лингвистики и автоматического перевода. Выпуск 1-4. М.: 1971-74.
11. Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 2008.
12. Каримов И. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият. 2008.
13. Каримова В.М. Психология. Т. 2000
14. Кодухов Б.И. Общее языкознание. М., 1974.
15. Кодухов В.И. Введение в языкознание. М.: 1976.
16. Леонтьев А.А. Психоллингвистика. Л., 1967.
17. Леонтьев А.А. Психоллингвистические единицы и порождение речевого высказании. М., 1969.
18. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. Ўқув қўлланма. “Турон-иқбол”, Тошкент, 2006.
19. Нурмонов А. Танланган асарлар II жилдлик. Тошкент “Академнашр” 2012.
20. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. “Шарқ”, Тошкент, 2001, 61-68-бетлар.

21. Психоллингвистика за рубежом. М.,1972.
22. “Психология” қисқача изоҳли луғат. Т. 1997.
23. Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент, 2010.
24. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили.Т. 2006.
25. Реформацкий А.А. Введение в языкознание. 4-е изд.-М.: 1967.
26. Сахарный Л.С. Введение в психоллингвистику. Л.,1989.
27. Слобин Д., Грин Дж. Психоллингвистика. М.,1976.
28. Тилшуносликка кириш. Маърузалар матни. –Т.: Университет, 2000.
29. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., “Ўқитувчи”, 1992.
30. Худайберганава Г. “Экспериментал психология” Нукус 2012.
31. Шахнарович А.М., Юрьева Н.М.Психоллингвистический анализ семантики и грамматики. М.,1991.
32. Шендельс Е.И. Связь языкознания с другими науками. М.:1962.
33. Шоабдурахмонов Ш. Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., “Ўқитувчи”, 1980.
34. Якушин Б.В. Гипотезы о происхождении языка. М.: 1984.